

## O'zbekiston Davlat Strategiyasi

# 2024-2029

2024-yil 24-yanvarda Direktorlar Kengashi tomonidan tasdiqlangan



**European Bank**  
for Reconstruction and Development



“Hujjatning asl matni tarjimalari o‘quvchiga qulaylik yaratish maqsadidagina YTTB tomonidan taqdim etiladi. YTTB tarjimaning haqiqiylikini ta‘minlashga astoydil harakat qilgan bo‘lsa-da, YTTB tarjimaning to‘g‘riligiga kafolat bermaydi yoki tasdiqlamaydi. Bunday tarjimaga tayanish oqibatlarini o‘quvchining o‘z zimmasiga tushadi. YTTB, uning xodimlari yoki agentlari hech qanday sharoitda o‘quvchi yoki boshqa birov oldida tarjima mazmunining biror qismi xatoligi, tushirib qoldirilishi, o‘chirilishi, kamchiligi va/yoki o‘zgartirilishi sabablaridan qat’i nazar buning natijasida kelib chiqqan hech qanday zarar uchun javobgar bo‘lmaydi. Ingliz tili va tarjima o‘rtasida biror nomuvofiqlik yoki qarama-qarshilik bo‘lsa, ingliz tilidagi versiya inobatga olinadi.”

Mundarija		Asosiy atamalar lug'ati			
Umumiy Ma'lumot	4	YBI	Yillik biznes investitsiyalari	XVJ	Xalqaro valyuta jamg'armasi
O'zbekiston – YTTB Hamkorligi	5	OTB	Osiyo Taraqqiyot Banki	DOT	Dastlabki ommaviy taklif
I. Oldingi Strategiyaning Ijrosi (2018-2023)	6	FTA	Fransiya taraqqiyot agentligi	AT	Axborot texnologiyalari
Oldingi Strategiya Davrida Erishilgan Asosiy Natijalar	6	KBM	Kichik biznes uchun maslahat	IchX	Ishlab chiqarish va xizmatlar
Strategiya Ijrosidagi Qiyinchiliklar va Asosiy Saboqlar	8	INI	Iste'mol narxlar indeksi	MKO'K	Mikro, kichik va o'rta korxonalar
II. Iqtisodiy Vaziyat	9	FJT	Fuqarolik jamiyati tashkiloti	MBH	Milliy belgilangan hissalar
Strategiya Davridagi Makroiqtisodiy Vaziyat va Istiqbol	9	EI	Ekologik va ijtimoiy	RRY	Rasmiy rivojlanish yordami
O'tish Bosqichidagi Asosiy Qiyinchiliklar	10	YIB	Yevropa investitsiya banki	IHTT	Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti
III. Hukumat Qo'ygan Ustuvor Yo'nalishlar va Manfaaddor Tomonlar Ishtiroki	12	AIB	Atrof-muhit va ijtimoiy bo'lim	XMI	Xususiy moliya instituti
IV. O'zbekiston Davlat Strategiyasining Ustuvor Yo'nalishlarini Belgilash	13	YI	Yevropa Ittifoqi	XDH	Xususiy-davlat hamkorligi
V. Chora-Tadbirlar va Natijalar	14	TXI	To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar	IchT	Ishlab chiqarishga talablar
VI. YTTBning Faoliyat Sohaslarida Xalqaro Hamkorlarning Bir-Birini To'ldirishi	17	MI	Moliya instituti	QTE	Qayta tiklanadigan energiya
VII. Strategiya Ijrosidagi Tavakkalchiliklar, Ekologik va Ijtimoiy Oqibatlar	18	XVA	Xorijiy valyutani ayirboshlash	IQG	Islahotlarni qo'llab-quvvatlash guruhi
VIII. Donorlar bilan Hamkorlikni Baholash	19	YIF	Yashil iqlim fondi	KO'B	Kichik va o'rta biznes
Ilova – Siyosiy Baholash	20	YIM	Yalpi ichki mahsulot	DB	Davlat banklari
		YIO'	Yashil iqtisodiyotga o'tish	DK	Davlat korxonasi
		IG	Issiqxona gazi	TH	Texnik hamkorlik
		GQZ	Global qiymat zanjirlari	SOD	Savdoni osonlashtirish dasturi
		SSA	Sanoat, savdo va agrobiznes	TMT	Telekommunikatsiya, media va texnologiyalar
		AKT	Axborot va kommunikatsiya texnologiyalari	JB	Jahon Banki
		XEA	Xalqaro energiya agentligi	BY	Biznesda yoshlar
		XMK	Xalqaro moliya korporatsiyasi		
		XMI	Xalqaro moliya instituti		
		XMT	Xalqaro mehnat tashkiloti		

2018-yil sentabr oyida oldingi O'zbekiston Davlat Strategiyasi tasdiqlanganidan buyon erishilgan yutuqlar davomiy bo'lmagan bo'lsa-da, O'zbekiston Bankni ta'sis etish to'g'risidagi moddalarda bayon etilgan 1-moddaning siyosiy tamoyillariga va ularni qo'llashga sodiq qolmoqdi. Oldingi Davlat Strategiyasi davrining birinchi qismida rivojlanish izchilroq, ikkinchisida esa sekinroq va tarqoqroq bo'ldi. Bank 2017-yilda qayta ishga kirishgunga qadar O'zbekistonning 1-modda tamoyillariga sodiqligi va uning ijrosi minimal darajada edi. O'shandan beri sezilarli yutuqlarga erishildi, ammo asosiy muammolar hali ham saqlanib qolmoqda.

O'zbekiston so'nggi besh yil ichida iqtisodiyotni ochish va ulkan bozor islohotlarini boshlashdan foyda ko'rди, global pandemiya va Rossiyaning Ukrainaga qarshi urushi tufayli deyarli to'xtab qolmagan kuchli o'sish ko'rsatkichlarini qayd etdi. Joriy va kapital hisoblari erkinlashtirildi, savdo cheklolari olib tashlandi, qo'shni davlatlar bilan aloqalar sezilarli darajada yaxshilandi. Ushbu islohotlar qishloq xo'jaligi va ishlab chiqarishni jadal kengaytirish, shuningdek, kuchli infratuzilma investitsiyalarini yo'lga qo'yish imkonini berdi. Iqtisodiyotda xususiy sektorning ulushi oshdi va yashil iqtisodiyot bo'yicha sezilarli yutuqlarga erishildi, jumladan qayta tiklanadigan energiya ishlab chiqarish sezilarli darajada kengaytirildi. O'zbekiston mintaqaviy tafovutlarni bartaraf etish, ayollarga nisbatan zo'rvonlikni bartaraf etish va gender inklyuzivligini rag'batlantirish bo'yicha muhim qadamlar qo'ydi, biroq Jinoyat kodeksida erkaklar o'rtasidagi bir jinsli munosabatlarni jinoylashtiruvchi modda saqlanib qoldi.

Biroq barcha iqtisodiyot tarmoqlarida islohotlarning asosiy muammolari saqlanib qolmoqda. Siyosiy iqtisod cheklolari va cheklangan hukumat salohiyati yanada murakkab islohotlarni amalga oshirish, jumladan, iqtisodiy boshqaruv va tadbirkorlik faoliyatini yanada takomillashtirishga to'sqinlik qilmoqda. Iqtisodiyotda yirik davlat kompaniyalari va moliya institutlari hukmronlik qilishda davom etmoqda va KO'B rivojlanishiga malakalarning yetarli emasligi, moliyaviy xarajatlarning yuqoriligi va saqlanib qolgan muhim ma'muriy cheklolar to'sqinlik qilmoqda. Ayollar huquqlarini ilgari surish bo'yicha erishilgan yutuqlarga qaramay, mamlakat ayollarning siyosat va iqtisodiyotdagi ishtiroki bo'yicha ortda qolmoqda. Shuningdek, mamlakatda iqlim o'zgarishi xavfi ortib bormoqda, jumladan, CO2 chiqindilarining ko'pligi, suv tanqisligining ortishi, energiya, suv va umumiy resurslar samaradorligi pastligi jiddiy muammoga aylangan.


O'zbekiston yelkasiga olgan islohotlar majburiyati va ularning ijrosi yuzasidan YTTB zarur islohotlarni amalga oshirish bo'yicha maslahatlar berish va ularga ko'maklashish hamda tijoriy moliyalashtirishni ko'paytirish orqali sarmoya kiritish bilan yordam berishga tayyor. Birinchi asosiy yo'nalish energiya ishlab chiqarish va boshqa muhim iqtisodiyot tarmoqlarini dekarbonizatsiya qilish, mamlakatning iqlim o'zgarishiga ta'sirchanligini kamaytirish, shuningdek, shahar va atrof-muhitni muhofaza qilish xizmatlarini sezilarli darajada oshirishdir. Yana bir ustuvor yo'nalish Bank tomonidan innovatsiyalar va barqaror ish o'rinlarini yaratish dvigateli sifatida xususiy sektorning umumiy kengayishini qo'llab-quvvatlash hisoblanadi. Iqtisodiyotda xususiy sektorning joriy ulushini hisobga oladigan bo'lsak, bunday qo'llab-quvvatlash keng qamrovli bo'ladi: u mahalliy yirik, kichik va o'rta korxonalariga hamda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarga taqdim etiladi, DXSh dasturini jadallashtirish, shuningdek, davlat korxonalari va banklarini o'zgartirish hamda xususiylashtirishni o'z ichiga oladi. YTTB ishtirokining uchinchi ustuvor yo'nalishi xususiy sektor va umumiy iqtisodiy rivojlanish uchun qulay shart-sharoitlar yaratishdan iborat: boshqaruv amaliyotini takomillashtirish, institutlar sifatini yaxshilash, qonun ustuvorligini kuchaytirish, shuningdek, O'zbekistonning viloyatlararo va global transport hamda energetika infratuzilmasini kuchaytirish, mamlakatning savdo aloqalarini rivojlantirish va eksport salohiyatini oshirish uchun yumshoq chora-tadbirlar va moliyalashtirish vositalarini qo'llab-quvvatlash. Shundan kelib chiqib, YTTBning 2024-2029 yillardagi strategik ustuvor yo'nalishlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Dekarbonizatsiya, yashil shaharlar, suv samaradorligi va toza energiyani qo'llab-quvvatlash
- Xususiy sektorni rivojlantirish, bandlik, ko'nikmalar, inklyuzivlik va raqamli o'zgarishlarni rivojlantirish
- Iqtisodiy boshqaruv, biznes muhiti va infratuzilma aloqalarini yaxshilashga ko'maklashish


## YTTBning O'zbekistondagi investitsiya faoliyati (2023-yil dekabr holatiga ko'ra)

Portfolio	€2,379m	Faol loyihalar	81
Kapital ulushi	3%	Operatsiya aktivlari	€958m
Xususiy sektor ulushi <sup>1</sup>	59.3%	Sof jami investitsiyalar	€4,286m


## Yillik biznes investitsiyalar va operatsiyalar




## Portfolio tuzilishi



## Portfolio ko'rsatkichlari



## O'tish bosqichidagi bo'shliqlar<sup>2</sup>



## O'zbekistondagi tegishli ko'rsatkichlar

	O'zbekiston	Taqqoslanuvchilar
Aholi (million) <sup>3</sup> (2022)	35.27	Qozog'iston (19.74) Qirg'iziston (6.8)
Aholi jon boshiga YaIM (Sotib olish qobiliyati, ming AQSh dollari) <sup>3</sup> (2022)	9.63	Qozog'iston (30.54) Qirg'iziston (5.93)
Yangi biznes zichligi <sup>4</sup> (har 1.000 kishiga yangi ro'yxatga olinganlar, 2020)	2.7	Qozog'iston (3.5) Qirg'iziston (1.3 in 2016)
Ishsizlik (%) <sup>3</sup> (2022)	8.9	Qozog'iston (4.9) Qirg'iziston (9.0)
Yoshlar ishsizligi (%) <sup>5</sup> (2022)	13.8	Qozog'iston (3.8) Qirg'iziston (8.8)
Ayollarning mehnat kuchidagi ulushi (%) <sup>5</sup> (2022)	40.01	Qozog'iston (65.1) Qirg'iziston (45.4)
Energiya intensivligi UET/YaIM (MJ/2017 \$) <sup>6</sup> (2020)	7.54	Qozog'iston (5.78) Qirg'iziston (5.09)
Chiqindi intensivligi/YaIM (kgCO2/2017 \$) (2020) <sup>7</sup>	0.46	Qozog'iston (0.42) Qirg'iziston (0.29)

1 Bankning jami investitsiyalari: portfolio bo'yicha 5 yil davomida; 2. Qarang: EBRD Transition Report 2022-2023; 3. IMF World Economic Outlook; 4. WB Entrepreneurship Survey and database; 5. Xalqaro Mehnat Tashkiloti; 6. Xalqaro energiya agentligi; 7. Jahon banki




# 1. Oldingi Strategiya Ijrosi (2018-2023)


## 1.1. Oldingi strategiya davrida erishilgan asosiy natijalar (1/2)

### 2018-2023-yillar uchun strategik muvofiqlashtirish

#### Yillik biznes investitsiyalari (YBI)



#### Texnik yordam va investitsiya grantlari




#### O'tish davri ta'siri<sup>1</sup>



### 1-ustuvor yo'nalish. Iqtisodiyotda xususiy sektorning rolini kuchaytirish orqali raqobatbardoshlikni oshirish

#### Asosiy miqdoriy natijalar



- Number of ASB clients reporting increased productivity
- Number of ASB clients reporting increased turnover

#### O'tish davridagi asosiy natijalar

- Turli sohalarni qamrab oluvchi 230 dan ortiq KO'B bo'yicha maslahat loyihalari amalga oshirildi, jumladan, 70 dan ortiq tadbirkor ayollarga tegishli kompaniyalar, qishloq joylarda esa 40 ga yaqin korxonalariga ko'mak berildi. Bundan tashqari, SOD bo'yicha hamkor banklar, istiqbolli hamkor banklar va O'zbekiston Markaziy bankidan 380 dan ortiq jismoniy shaxslarga treninglar o'tkazildi hamda 2023-yilda 50 ta elektron o'quv modullari taqdim etildi.
- 2000 dan ortiq KO'B subyektlarining moliyalashtirish imkoniyatlari yaxshilandi, 9 ta hamkor bank va O'zbekiston lizingi orqali 380 million yevrolik kredit liniyalari taqdim etildi. Shuningdek, KO'B va mahalliy biznes-maslahatchilar uchun 50 ta o'quv mashg'ulotlari va seminarlar, jumladan, WiB biznes dasturi doirasida ayollar boshchiligidagi KO'B subyektlari uchun 30 ta trening mashg'ulotlari o'tkazildi.
- O'zbekistonning birinchi to'liq raqamli banki TBC Bankga aksiyadorlik investitsiyalari orqali raqamli moliyalashtirishni rag'batlantirdi.
- 2021-yilda qabul qilingan Kapital Bozorlarni Rivojlantirish Strategiyasini shakllantirishga rahbarlik qilish va valyuta xavflarini boshqarishni osonlashtirish uchun 20 million dollarlik krossvalyuta almashinuviga sarmoya kiritish orqali moliya va kapital bozorlarini rivojlantirishga yordam berdi.
- Biznes operatsiyalarini kengaytirish va modernizatsiya qilish uchun asosiy mahalliy korxonalariga sarmoya kiritildi, jumladan Anglesey Food oziq-ovqat chakana savdo tarmog'iga 40 million AQSh dollari miqdoridagi investitsiya va Meros Pharm farmatsevtikasi uchun 15 million dollarlik kredit ajratildi.
- Texnik yordam va salohiyatni oshirish dasturlari, shu jumladan Davlat aktivlarini boshqarish agentligi orqali asosiy sanoat korxonalarining korporativ boshqaruvini takomillashtirish va davlat banklarini xususilashtirish qo'llab-quvvatlandi.
- Barqaror siyosat bo'yicha maslahatlar orqali davlat boshqaruvi mustahkamlandi va biznes muhiti yaxshilandi:
  - xotin-qizlarning iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirishga ko'maklashish maqsadida Ayollar tadbirkorligi bo'yicha maslahat kengashini tashkil etish
  - 2021-2025 yillarda davlat korxonalarini isloh qilish va boshqarish strategiyasini (de-fakto Davlat aktivlariga egalik siyosati) va davlat mulkini boshqarish to'g'risidagi qonunni tayyorlash hamda qabul qilish
  - 2022-yilda tadbirkorlik muhitini yaxshilash va to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni faollashtirish uchun Xorijiy investorlar kengashini tashkil etish

1. O'tish davri ta'siri ko'rsatkichlari loyihalarni imzolash paytida ulardan kutilgan ta'sirga erishish ehtimolini aks ettiradi. Faol yetuk (> 2 yil) portfolio asosida hisoblangan



# 1. Oldingi Strategiya Ijrosi (2018-2023)

## 1.1. Oldingi strategiya davrida erishilgan asosiy natijalar (2/2)

### 2-ustuvor yo'nalish. Sektorlar bo'ylab yashil energiya va resurslar yechimlarini ilgari surish

#### Asosiy miqdoriy natijalar


Natija ko'rsatkichlari	2018-2022
Tejalgan birlamchi energiya (GJ/yil)	27,926,076
Tejalgan suv (m3/y)	110,630,504
CO2e chiqindisining kamaytirilgani (ktonna/yil)	3,340
O'rnatilgan qayta tiklanadigan energiya quvvati (MW)	1,700

#### Asosiy o'tish davri natijalari

- Mamlakatdagi qayta tiklanadigan energiya manbalarining birinchi ikkita xususiy loyihasi – Navoiy va Samarqand viloyatlarida bir yil davomida 20 000 uyni isitishga yetadigan 200 MVt quyosh quvvatiga ega ikkita quyosh fotoelektr stansiyasi birgalikda moliyalashtirildi.
- Navoiy viloyatida shamol turbinalari bilan to'qnashuv xavfi ostida bo'lgan jonzot turlarini kuzatish va aniqlash uchun Markaziy Osiyoda birinchi marta "Identiflight" tizimini joriy etuvchi 500 MVt quvvatga ega yashil maydon shamol elektr stansiyasiga 74-million-dollar sarmoya kiritildi.
- Iqlim o'zgarishini yumshatish va moslashish texnologiyalariga sarmoya kiritish uchun kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlovchi Yashil iqtisodiyotni moliyalashtirish mexanizmi ishga tushirildi.
- Auksionlar orqali qayta tiklanadigan energiya ishlab chiqarishning shaffof va raqobatbardosh rejimini yo'lga qo'yish bo'yicha tavsiyalar berildi va shamol energetikasi auksionlarida islohot olib borildi.
- Hukumat tomonidan qabul qilingan 2050-yilgacha elektr energetikasi sohasida uglerod neytralligiga erishishga qaratilgan past uglerodli yo'l loyihasi ishlab chiqildi va O'zbekistonning Global Metan Kelishuvida ishtirok etishiga turtki bo'ldi.
- Surxondaryoga 50 million AQSh dollari va Namangan viloyatiga 70 million AQSh dollari miqdorida investitsiya kiritilib, toza suv ta'minoti va oqava suv infratuzilmasini rivojlantirish qo'llab-quvvatlandi, bu 230 ming aholiga sifatli suvdan foydalanish imkonini beradi va har ikki viloyat bo'yicha yillik yo'qotilgan suv miqdorini kamaytiradi.
- Samarqand uchun "Yashil shaharlar" harakatlar rejasini ishlab chiqish boshlandi hamda Samarqand shahrida jamoat transporti xizmatlari va yashil jamoat transporti xizmatlarini yaxshilash maqsadida elektron avtobuslar va elektron avtobus deposi infratuzilmasini xarid qilish va ishga tushirish moliyalashtirildi.

### 3-ustuvor yo'nalish. Mintaqaviy va xalqaro hamkorlik hamda integratsiyani kuchaytirishni qo'llab-quvvatlash

#### Asosiy miqdoriy natijalar



#### Asosiy o'tish davri natijalari

- SOD orqali mintaqaviy va xalqaro savdoga ko'maklashildi, umumiy qiymati 690 mln yevrodan ortiq bo'lgan 1100 dan ortiq tranzaksiyalarga amalga oshirildi va bu sa'y-harakatlarga qo'shimcha sifatida 2023-yilda SOD bo'yicha hamkor banklar, istiqbolli hamkor banklar hamda O'zbekiston Markaziy bankidan 380 dan ortiq shaxslar uchun shaxsiy treninglar va 50 ta elektron ta'lim modullari taqdim etildi.
- Mintaqaviy elektr uzatish tarmog'ini yangilash uchun Navoiy elektr uzatish tarmog'iga 71 million yevro ajratish orqali kengaytirilgan energiya aloqasi qo'llab-quvvatlandi.
- Xiva mehmonxonalarini va restoranlariga sarmoya kiritish orqali turizm oqimi kuchaytirildi va Integratsiyalashgan madaniy meros tizimi doirasida Xivani rivojlantirish bosh rejasini yakunlandi.
- Mintaqaviy aloqani kuchaytirish maqsadida transport infratuzilmasini modernizatsiya qilish, shu jumladan Toshkent – Samarqand pullik avtomobil yo'li bo'yicha DXSh uchun maslahatlar berishga erishildi.
- 2019-yilda qabul qilingan "DXSh to'g'risida"gi qonunni ishlab chiqish, davlat-xususiy sheriklikning huquqiy va institutsional asoslarini mustahkamlash qo'llab-quvvatlandi.
- Yevropa Ittifoqi tomonidan moliyalashtirilgan Yevropa va Markaziy Osiyo o'rtasidagi barqaror transport aloqalari bo'yicha yumshoq chora-tadbirlar va investitsiyalarga ustuvor ahamiyat berilgan tadqiqot amalga oshirildi.



# 1. Oldingi Strategiya Ijrosi (2018-2023)

## 1.2. Strategiya Ijrosidagi Qiyinchiliklar va Asosiy Saboqlar

### Ijroni ta'minlash to'g'risida

Oldingi strategiya davri O'zbekiston iqtisodiyotining izchil ochilishi bilan bir vaqtga to'g'ri keldi, ulkan iqtisodiy islohotlarni, jumladan, valyutani liberallashtirish, xususiy sektor kengayishini qat'iy qo'llab-quvvatlash va iqtisodiyotga davlat aralashuvini qisqartirish boshlandi. Oldingi strategiya davri, shuningdek, tashqi siyosatda qo'shnilar bilan konstruktiv, faol munosabatlarga o'tish, global miqyosdagi sheriklar uchun ochiq bo'lish va faol muloqotga kirishish paytiga to'g'ri keldi. Xorijiy va ichki investitsiyalar qishloq xo'jaligi, ishlab chiqarish va qayta tiklanadigan energiya sohaslarining kengayishiga olib keldi, shu bilan birga o'sish tezlashdi. Oxirgi besh yil ichida erishilgan sezilarli yutuqlarga qaramay, O'zbekiston hali ham, birinchi navbatda, xususiy kompaniyalar uchun ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, davlat banklarida kreditlash madaniyatini o'zgartirish, davlat korxonalari va banklari boshqaruvini takomillashtirish, o'zaro hamkorlikni kengaytirish, chegaraviy aloqa va integratsiya, moliya va kapital bozorlarini chuqurlashtirish hamda yashil texnologiyalar, qayta tiklanadigan energiya va innovatsiyalarni kengaytirish kabi sohalarda jiddiy tarkibiy muammolarga duch kelmoqda. Bundan tashqari, mamlakat ortib borayotgan demografik bosim va iqlim xatarlariga nisbatan yaxshi tayyorgarlikka ega emas. Bank O'zbekistonda qayta ishga tushirilganidan buyon yashil iqtisodiyotga o'tish, xususiy sektorning raqobatbardoshligi, barqaror moliya va bank sektori, oshib borayotgan mintaqaviy integratsiya va barqaror infratuzilmaga e'tibor qaratgan holda 115 ta operatsiyaga 3,4 milliard yevrodan ortiq mablag' ajratdi. Investitsiyalar bilan bir qatorda, YTTB hukumatning islohot dasturini qo'llab-quvvatlash uchun keng ko'lamli siyosiy maslahatlar va KO'B korxonalariga biznes bo'yicha maslahatlar berdi.

### Strategiya ijrosidagi qiyinchiliklar

- Mulk huquqlarini amalga oshirish, davlat korxonalari va banklarini xususiylashtirish bilan bog'liq tizimlarning tez-tez o'zgarib turishi hamda asosiy manfaatdor tomonlar salohiyatining pastligi asosiy davlat korxonalari va banklarini o'zgartirish va xususiylashtirishda kechikishlarga olib keldi.
- Cheklangan institutsional imkoniyatlar va hukumat tuzilmalaridagi tez-tez o'zgarishlar islohot va suveren portfolioni amalga oshirish yo'lidagi asosiy to'siq bo'lib qolmoqda.
- Tegishli DXSh asoslari va ijro salohiyatining yo'qligi xususiy sektor ishtirokini cheklaydi va investitsiyalar, ayniqsa infratuzilmani rivojlantirishda katta bo'shliqlarni keltirib chiqaradi.
- Kapital cheklavlari, sayoz pul va valyuta bozorlari tufayli mahalliy valyuta cheklangan. Parchalangan kapital bozori infratuzilmasi garchi so'nggi paytlarda yaxshilangan bo'lsa-da, hali ham xorijiy investorlarning ichki bozorga kirishiga imkon bermayapti.

### Asosiy saboqlar va istiqboldagi harakatlar

- So'nggi xususiylashtirish yutuqlari va islohotlarning jadalligidan foydalangan holda (masalan, bank sektorini isloh qilish, davlat korxonalari va banklarida mustaqil boshqaruv a'zolarining ishtirokini kengaytirish), davlat korxonalari va banklarini o'zgartirish, ularni boshqarishni takomillashtirish va xususiylashtirishni qo'llab-quvvatlash uchun davlat organlariga siyosat bo'yicha maslahatlar berish va yaxshi tanlangan, muayyan DK/DBlarga yordam ko'rsatish.
- Davlat infratuzilmasiga investitsiyalar uchun loyihalarni tayyorlash va amalga oshirishni tartibga solish bo'yicha takliflar berish uchun boshqa XMllar bilan hamkorlik qilish.
- Mavjud DXSh qonunidan foydalanish, me'yoriy-huquqiy bazadagi qolgan kamchiliklarni bartaraf etishga yordam berish va yangi, ko'zga ko'ringan DXSh investitsiyalarini ishga tushirish uchun DXShga tayyorgarlik bo'yicha maslahatlarni kengaytirish.
- Markaziy bank va yirik O'zbekiston banklari bilan hamkorlikda moliya va kapital bozorlarini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlashni davom ettirish.





## 2. Iqtisodiy Vaziyat

### 2.1. Strategiya davridagi makroiqtisodiy vaziyat va istiqbol

#### O'zbekiston – Asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar

	2019	2020	2021	2022
YalM o'sishi (% y-o-y)	5.7	1.9	7.4	5.7
INI inflyatsiyasi (% avg.)	14.5	12.9	10.9	11.4
Hukumat balansi (YalM dagi %i)	0.3	-3.3	-4.6	-4.2
Joriy hisob balansi (YalM dagi %i)	-5.6	-5.0	-7	-0.8
Sof TXI (YalM dagi %i) <i>[minus daromad oqimini bildiradi]</i>	-3.8	-2.9	-3.3	-3.1
Tashqi qarz (YalM dagi %i)	43.6	60	62.3	64.4
Yalpi zaxiralar (YalM dagi %i)	48.6	57.9	50.8	44.5
Umumiy davlat qarzi (YalM dagi %i)	28.5	37.4	36.6	34.9
Ishsizlik darajasi (%)	9.0	10.5	9.6	8.9
Nominal YalM (\$mlrd)	60.2	60.2	69.6	80.4

2022-yilda O'zbekiston iqtisodiyoti tashqi va ichki talabning sezilarli darajada yaxshilanishi tufayli 5.7 foizlik keng ko'lamlı o'sishni qayd etdi. Tovarlar va xizmatlar eksporti oldingi yilga nisbatan 15.9 foizga o'sdi, ayniqsa to'qimachilik, meva, mis quvurlar va elektr jihozlari (asosan Rossiyaga) kabi sohalarda katta o'sish kuzatildi. Ichki talab pul o'tkazmalarining o'sishi (2022-yilda yillik +110 foiz), shuningdek, Rossiya kompaniyalari va jismoniy shaxslarining boshqa joyga ko'chishi hisobiga ko'tarildi. Qishning sovuq sharoitlari tufayli elektr va issiqlik ta'minotidagi uzilishlarga qaramay, o'sish 2023-yilning yanvar-sentabr oylarida davom etdi. Bu davrda real yalpi ichki mahsulot qishloq xo'jaligi (yiliga +4.1 foiz), xizmat ko'rsatish (+12.1 foiz), sanoat (+5.7 foiz) va qurilish (+5.6 foiz)dagi o'sishi hisobiga yiliga 5.8 foizga oshdi.

**Inflyatsiya 2022-yilda ikki xonali songa yetdi** va 2023-yil avgust oyi holatiga ko'ra 9.0 foizni tashkil etdi. Inflyatsiya bosimining kamayishi bilan Markaziy bank iqtisodiy faollikni qo'llab-quvvatlash maqsadida 2023-yil 16-martda foiz stavkasini 100 bazis punktga, 14 foizga tushirdi.

**2023-yil sentabr oyida 31 milliard AQSh dollarini tashkil etgan xalqaro zaxiralar yil boshidan buyon 5 foizga kamaydi.** Biroq ular adekvat tashqi buferlarni ta'minlash uchun yetarli bo'lmoqda. Fitch hisob-kitoblariga ko'ra, byudjet taqchilligi 2022-yilda YalMning 3.9 foizini tashkil etgan va 2023-yilda 5.1 foizga, 2024-yilda esa 4.1 foizga qisqarishi kutilmoqda.

O'zbekistonning asosiy ko'rsatkichlari (kuchli tashqi va fiskal buferlar, davlat qarzning kamligi, yosh va mehnatkash ishchi kuchi, iqtisodiyot va tashqi savdoning nisbatan diversifikatsiyalangan tuzilmasi) mamlakatning global va mintaqaviy zarbalarga bardosh bera olish qobiliyatidan dalolat beradi. Umuman olganda, 2023- va 2024-yillarda iqtisodiyot 6,5 foizga o'sishi prognoz qilinmoqda. Xorijiy kompaniyalarni ko'chirishni davom ettirish, yaxshi boshqariladigan xususiy lashtirish va biznes muhitini isloh qilish potentsial ijobiy o'zgarishlardir (ayniqsa, KO'Bni rivojlantirishda). Rossiyaning Ukrainadagi urushi ta'minot zanjirlarini buzishi va pul o'tkazmalaridagi ijobiy tendensiyani o'zgartirishi vaziyatni yomonlashtirishi mumkin.



## 2. Iqtisodiy Vaziyat

### 2.2 O'tish bosqichidagi asosiy qiyinchiliklar (I/II)

#### Raqobatbardosh (3.69)


- 2016-yildan buyon **O'zbekiston iqtisodiyotidagi xususiy sektorning ulushi oshdi**, bu xususiy sektor kreditlarining YalMdagi ulushi uch baravar ko'payishida namoyon bo'ldi, biroq yirik davlat korxonalari va banklari hali ham YalMning 50 foizdan ortig'ini tashkil etadi. Telekommunikatsiya, qurilish va qurilish materiallari kabi muhim tarmoqlarda **davlat korxonalarining** yuqori miqdori va hukmronligi KO'B uchun **noteng biznes muhitini** yaratadi.
- Mehnat haqining pastligi**, qisqa muddatli raqobatdosh ustunlik bo'lsa-da, asosiy kapital va avtomatlashtirishga investitsiya kiritishga to'sqinlik qiladi va **mehnat unumdorligining o'sishini sekinlashtiradi**.
- 2016-2021 yillarda faoliyat ko'rsatayotgan KO'B subyektlari soni ikki baravarga ko'paydi, bunga qisman **sun'iy parchalanish** uchun soliq imtiyozlari sabab bo'ldi. Davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanayotgan chora-tadbirlarga qaramay, kichik va o'rta biznes **innovatsiyalari hamda eksport salohiyati pastligicha qolmoqda**. 2022-yilning 3-choragi holatiga ko'ra, KO'B subyektlarining atigi 27,4 foizi eksport faoliyati bilan shug'ullanadi.
- Yirik o'zbek korxonalari **malaka taqchilligi va moliyaviy xarajatlar tufayli orqada qolmoqda**. **Norasmiy raqobatchilar va elektr energiyasidan foydalanish KO'B korxonalari** uchun asosiy cheklavlar hisoblanadi. Soliq stavkalari hamma uchun birinchi raqamli masala.

#### Yaxshi boshqariladigan (4.71)


- O'zbekiston Jahon banki Boshqaruv ko'rsatkichlarining ko'p o'lchovlari bo'yicha qo'shnilari bilan bir xil ko'rsatkichlarga ega.**
- Sud-huquq islohotlari, jumladan, mustaqil ma'muriy sudlar tashkil etilishi, ish haqining oshirilishi va sudyalarni tanlashning takomillashtirilgani bo'yicha sezilarli yutuqlarga erishilganiga qaramay, korrupsiya, davlat hamda hukumat korxonalari xaridlarida shaffoflik yo'qlig muammolariga e'tibor qaratgan holda qonun ustuvorligini yanada mustahkamlash zarur.
- Hukumat salohiyati samarasiz va beqaror institutsional tuzilmalar va yuqori kadrlar almashinuvi tufayli cheklangan**, bu mamlakatning asosiy islohotlarni amalga oshirish hamda sifatli davlat xizmatlarini taqdim etish imkoniyatlariga to'sqinlik qilmoqda.
- Ijroiy o'zgarish shundaki, **mamlakat onlayn xizmatlar va elektron hukumat ishtiroki bo'yicha mintaqa, qiyoslanuvchi davlatlar va YTTB faoliyat yurituvchi mamlakatlardagi o'rtacha ko'rsatkichlardan baland bo'lib**, bu raqamlashtirish sohasidagi sezilarli yutuqlarni aks ettiradi.

#### Yashil (5.04)


- 2016-2021-yillarda O'zbekiston **"yashil kun tartibi" bo'yicha muhim yutuqlarga erishdi**, buning natijasida avtomobil chiqindilari emissiyasi standartlarini takomillashtirish, chiqindilarni kamaytirish majburiyatini olish, shuningdek, Milliy belgilangan hissalar (MBH) ekologik harakat rejasini qayta ko'rib chiqishga erishildi.
- Hukumat **2022- va undan keyingi yillar uchun qayta tiklanadigan energiyaga investitsiya rejalarini** e'lon qildi, energetika sektori uchun past uglerodli yo'lni qabul qildi va 2030-yilgacha metan chiqindilarini 30 foizga (2020-yilga nisbatan) kamaytirishga qaror qildi.
- CO2 chiqindilarining yuqori hajmi (qo'shilgan qiymatga nisbatan) **energiya samaradorligining yetishmasligidan** dalolat beradi, bu infratuzilmani (masalan, mamlakatning sug'orish tizimiga xizmat ko'rsatadigan nasos stansiyalari) va tarmoqlarni modernizatsiya qilish uchun katta sa'y-harakatlarni talab qiladi. O'zbekistondagi elektr tarmog'i hozirda cheklangan quvvat va ko'plab to'siqlarga ega, bu esa vaqti-vaqti bilan elektr tokining uzilishiga olib kelib, butun mamlakat bo'ylab fuqarolar va korxonalariga ta'sir ko'rsatmoqda hamda qayta tiklanadigan energiya loyihalarini amalga oshirishda katta cheklavlarni keltirib chiqarmoqda.
- Elektr va issiqlik ishlab chiqarishda tabiiy gaz ustunlik qiladi**. Qayta tiklanadigan energiyadan foydalanish juda past, ammo hukumat muqobil energiya manbalarini rivojlantirish bo'yicha sa'y-harakatlarni tezlashtirdi. Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, quyosh stansiyalari tomonidan ishlab chiqarilgan elektr energiyasi 2021-yildagi 49 million kVt/soatdan 2022-yilda 445.7 million kVt/soatga oshgan.



#### Boshqaruv ko'rsatkichlari



#### Resurslar bo'yicha elektr energiyasi ishlab chiqarish (TV/s)





## 2. Iqtisodiy Vaziyat

### 2.2 O'tish bosqichidagi asosiy qiyinchiliklar (II/II)

Inklyuziv (3.84)

- O'zbekistonning yangi rahbariyati ayollar inklyuivligini rag'batlantirish bo'yicha qat'iy majburiyatni o'z zimmasiga oldi, natijada ayollar uchun teng huquq va imkoniyatlarni kafolatlashga qaratilgan qator huquqiy islohotlar amalga oshirildi. Biroq **mamlakat ayollarning siyosat va iqtisodiyotdagi haqiqiy ishtiroki bo'yicha orqada qolmoqda. LGBT huquqlari bo'yicha hech qanday yaxshilanish bo'lmadi.**
- Mamlakatning mintaqaviy rivojlanishidagi katta nomutanosibliklar bandlik imkoniyatlari, infratuzilma va elektr energiyasi ta'minoti hamda moliyaviy ko'makdan foydalanish imkoniyatlarining teng emasligida namoyon bo'ladigan yana bir asosiy muammodir.
- Bank sektori ayollar boshchiligidagi KO'klarni qo'llab-quvvatlashda muhim rol o'ynashi kerak, biroq **operatsion kamchiliklar saqlanib qolmoqda.** Juda kam sonli banklar ayollar boshchiligidagi korxonalar uchun moslashtirilgan mahsulotlarni taklif qiladi, o'z mijozlari haqida jinsiga ko'ra ajratilgan ma'lumotlarni to'playdi yoki muntazam ravishda bozor/mijozlarni segmentatsiyalash tadqiqotlarini o'tkazadi.
- Mamlakat aholisining o'sishi ish o'rinlarini yaratish sur'atlaridan ancha yuqori bo'lib, **mehnat bozoriga katta bosim o'tkazmoqda, ish haqining pasayishi va yosh ishchilarning migratsiyasiga sabab bo'lmoqda.**


Chidamli (3.57)

- O'zbekiston energetika monopoliyasini bo'lib tashladi. Bu toza energiyaga o'tish bo'yicha qat'iy siyosat bilan birgalikda elektr energiyasini ishlab chiqarishda (ayniqsa shamol va quyoshdan) xususiy sektor ishtirokini rag'batlantirdi. Ammo **tarif islohotlari, tartibga soluvchi va institutsional o'zgarishlar bo'lmas ekan, tizim zaif, samarasiz, davlat investitsiyalari va subsidiyalarga to'liq qaram bo'lib qolaveradi.**
- Transchegaraviy kelishuvlar yo'qligi bois **suv resurslari bilan yetarli darajada ta'minlash asosiy muammo** hisoblanadi. **Ichimlik suvidan foydalanish imkoniyati qisqarmoqda** va o'rta muddatli istiqbolda muhim muammoga aylanishi mumkin. **Sug'orish tizimlari juda samarasiz bo'lib, katta investitsiyalarni talab qiladi.**
- O'zbekiston moliya bozorlari rivojlanishning dastlabki bosqichida bo'lib, barcha segmentlarda chuqurlik va likvidlik yetishmaydi. **Moliya sektorida** hozirgacha kapital bozorida ajratilgan **davlat banklari ustunlik qiladi.**
- Himoyachilarning yo'qligi, xalqaro kliring tizimlaridan uzilish, mablag'larni repatriatsiya qilishdagi cheklavlar, hisob varag'i ochishning murakkab tartiblari tufayli xorijiy investorlar uchun mahalliy kapital bozorlariga kirish juda cheklangan.

Integratsiyalashgan (4.75)


- Dengizga chiqish imkoni bo'lmagan davlat sifatida O'zbekiston **transport aloqasini rivojlantirishga** katta ahamiyat berishi kerak. **Bojxona rasmiyatchiligi va chegaralarni boshqarishdagi samarasizliklarni** bartaraf etish mamlakatning xalqaro logistika ko'rsatkichlarini rivojlantirishga yordam beradi. O'zbekiston o'zining transport aloqalarini rivojlantirishga katta ahamiyat berishi kerak. Mamlakat salohiyatiga uning **transport tarmog'i, ayniqsa, hududlardagi ahvol, yuk mashinalari parkining eskirgani, ixtisoslashtirilgan harakatlanuvchi tarkibning yo'qligi, moliyalashtirish hamda tariflarda o'zaro subsidiyalar cheklanganligi** to'sqinlik qilmoqda.
- O'zbekistonning AKTni rivojlantirish borasidagi yutuqlari pastligicha qolmoqda. **Telekommunikatsiya xizmatlarida raqobatning yo'qligi AKT sohasining rivojlanishiga to'sqinlik qilmoqda.** Ba'zi xizmatlar, masalan, yuqori tezlikdagi internet faqat shaharlarda mavjud. Mamlakat infratuzilmasini yaxshilash bo'yicha yuqori intilishlarga qaramasdan, **tegishli DXSh tizimi yo'qligi** (byurokratik bo'linish va vazirliklararo muvofiqlashtirishning yo'qligi) **infratuzilmani rivojlantirishda xususiy sektor ishtirokini cheklaydi,** natijada byudjet bosimi ortadi.

#### O'rtacha ish haqi va ayollarning tarmoqlardagi ulushi,%




Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi

#### Moliya bozorining rivojlanish indeksi



Manba: YTTB

#### Logistika samaradorligi indeksi LSI quyi ballari (1=pastdan 5=yuqorigacha)



Manba: Jahon Banki



## 3. Hukumat Qo‘ygan Ustuvor Yo‘nalishlar va Manfaatdor Tomonlar Ishtiroki

### 3.1 Hukumat islohotlarining ustuvor yo‘nalishlari

**2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi** yettita maqsadga asoslangan holda quyidagilarga e‘tibor qaratadi: **1)** Erkin jamiyatni barpo etish va markazlashtirishdan chiqarish orqali mahalliy davlat hokimiyati organlarining rolini oshirish; **2)** Qonun ustuvorligini mustahkamlash; **3)** Iqtisodiy rivojlanish va tez o‘shishga intilish; **4)** Adolatli davlat siyosatini amalga oshirish va inson kapitali rivojlanishini ta‘minlash; **5)** Milliy manfaatlarni himoya qilish; **6)** Ko‘p vektorli tashqi siyosat orqali xalqaro hamkorlikni amalga oshirish; **7)** Xavfsizlik va mudofaani mustahkamlash. Strategiya hujjatida, xususan, kichik va o‘rta biznesga ko‘maklashish, ish o‘rinlari yaratish va ishsizlikni kamaytirish uchun xorijiy sarmoyalarni jalb qilish, xususiylashtirish va monopoliyaga qarshi kurashishni jadallashtirish, xalq turmush darajasini oshirish kabilar nazarda tutilgan.

Hukumat, shuningdek, 2030-yilgacha quyidagi maqsadlarga erishish uchun ulkan yo‘l xaritasini ishlab chiqdi: qashshoqlik darajasini ikki baravarga kamaytirish; oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash uchun qishloq xo‘jaligini barqaror rivojlantirish; mavjud qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini tartibga solish; onalar o‘limining 1/3 ga qisqarishi; ayollar va bolalarga nisbatan zo‘ravonlikni yo‘q qilish; gender tengligi tamoyillarini birlashtirish; suv samaradorligini oshirish; ishonchli va arzon energiyadan to‘liq foydalanishga erishish; va aholi jon boshiga YaIMni 160 foizga oshirish.

**“Raqamli O‘zbekiston 2030” strategiyasida** ushbu maqsadlar bilan bir qatorda raqamli infratuzilma, elektron hukumat, raqamli iqtisodiyot, milliy IT sektorini rivojlantirish va IT-ta‘lim sohalarida raqamli transformatsiyaga erishishning beshta ustuvor yo‘nalishi belgilangan. Xuddi shunday, **2019-2030-yillarga mo‘ljallangan Yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi** O‘zbekistonning energiya samaradorligini oshirish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va saqlash, issiqxona gazlari chiqindilarini kamaytirish, yashil energiyadan foydalanishni ta‘minlash, ish o‘rinlarini yaratish va iqlim o‘zgarishiga chidamlilikni ta‘minlash bo‘yicha majburiyatlarini belgilab berdi.

2022-yilda Prezident Mirziyoyev **“Iqtisodiyotda davlat ishtirokini yanada qisqartirish va xususiylashtirishni jadallashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”**gi Qarorni imzolagan bo‘lib, unda turli davlat korxonalarini va banklarini xususiylashtirish muddatlari belgilangan.

### 3.2 Hokimiyat bilan keng doirada kelishilgan YTTBning islohot yo‘nalishlari

- Asosiy kommunal xizmatlar va kommunal operatorlarning tijoratlashuvi va moliyaviy barqarorligi, jumladan tarif islohoti
- Suv sektorida barqarorlik va resurslarni boshqarishga qaratilgan islohotlar hamda investitsiyalar
- Energiya samaradorligi va yashil iqtisodiyot yechimlarini rag‘batlantirish, jumladan 2050-yilga kelib chiqindisiz qayta tiklanadigan energiya manbalariga investitsiyalar hajmini oshirish uchun institutsional salohiyatni mustahkamlash va huquqiy qo‘llab-quvvatlash
- Moliyaviy institutlarning salohiyatini kuchaytirish, jumladan tanlangan DBlarni transformatsiya qilish, xususiylashtirish, raqamlashtirish va mahsulot innovatsiyasi (faktoring, ta‘minot zanjirini moliyalashtirish)
- Davlat-xususiy sheriklikning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish
- Agregatorlarni rivojlantirish orqali kichik biznes uchun moliyaviy va biznes-konsultativ yordamni kuchaytirish
- Moliyaviy axborot markazi va davlat-xususiy sektor muloqoti uchun boshqa platformalar orqali biznes muhitini yaxshilash

### 3.3 Fuqarolik jamiyatining YTTBga asosiy murojaati

- Tizimli islohotlarni jadallashtirish va institutsional salohiyatni oshirishga ko‘maklashish
- Mamlakatda innovatsion biznesni rivojlantirish
- Yoshlar bandligini oshirish uchun hududlarda, jumladan, kichik shaharlar va qishloq joylarda sanoat/xizmat ko‘rsatish salohiyatiga sarmoya kiritish
- Hamma uchun, shu jumladan nogironlar uchun davlat xizmatlaridan, ayniqsa jamoat transportidan teng foydalanish, faqat raqamli ommaviy axborot va malaka oshirish imkoniyatlarini rag‘batlantirish
- Iqlim o‘zgarishi sezilarli hududiy farqlar bilan suvdan foydalanishga, shu jumladan sof daromadga ta‘sir qiladi hamda diqqat bilan tartibga solish va ilg‘or texnologiyalarni joriy etishni talab qiladi
- Butun mamlakat bo‘ylab ayollar uchun teng ta‘lim va ish bilan ta‘minlash imkoniyatlarini, shu jumladan biznes va raqamli ko‘nikmalardan foydalanishni ta‘minlash
- Davlat xaridlari va DXShda shaffoflik hamda javobgarlikni rag‘batlantirish va tegishli monitoring salohiyatini oshirish



# 4. O'zbekiston Davlat Strategiyasining Ustuvor Yo'nalishlarini Belgilash

Nimalar o'zgartirilishi kerak? (Mamlakat diagnostikasi)	Buni o'zgartirish mumkinmi? (Siyosiy iqtisod)	Bank qanday yordam berishi mumkin? (Institutsional imkoniyatlar)	Strategik ustuvor yo'nalishlar (2024-2029)	2029-yilda nimani ko'rishni xohlaymiz?
<ul style="list-style-type: none"> <li>CO2 emissiyasi yuqoriligi qolmoqda.</li> <li>Energiya tizimi zaif va samarasiz, davlat subsidiyalariga qaram.</li> <li>Elektr va issiqlik ishlab chiqarishda tabiiy gaz ustunlik qiladi.</li> <li>Suv resurslari bilan yetarli darajada ta'minlash asosiy muammo hisoblanadi.</li> <li>Ichimlik suvidan foydalanish imkoniyati qisqarmoqda va sug'orish tizimlari samarasizligicha qolmoqda.</li> <li>Iqtisodiyot bo'ylab energiya va resurslar samaradorligining pastligi.</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>Qayta ko'rib chiqilgan Milliy Belgilangan Hissalar rejasida aks ettirilgan chiqindilarni kamaytirish bo'yicha qat'iy majburiyat.</li> <li>Qayta tiklanadigan energiyaga investitsiya rejalari.</li> <li>Boshqa tarmoqlarda ham qo'llash mumkin bo'lgan energiya sektori uchun kam uglerodli yo'l.</li> <li>2020-2030 yillar davomida metan chiqindilarini 30 foizga kamaytirishga ahd qilish.</li> <li>Mintaqaviy suv va energetika sohasidagi hamkorlikni yaxshilash.</li> <li>Hukumatning iqlim o'zgarishi bilan bog'liq ko'nikmalarni rivojlantirishga ko'maklashishi.</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>Energiya samaradorligi, qayta tiklanadigan energiya, yashil bank, yashil shaharlar, iqlimga chidamlilik va yashil obligatsiyalar sohalarda ekologik moliyalashtirish bo'yicha kuchli tajriba.</li> <li>Barqaror energiya, transport, irrigatsiya va kommunal infratuzilmani samarali yetkazib berish.</li> <li>Uzoq muddatli dekarbonizatsiya strategiyasini va ba'zi sanoat tarmoqlarida yetakchi dekarbonizatsiya strategiyasini tayyorlashga birgalikda rahbarlik qilish.</li> </ul>	<p><b>Decarbonizatsiya, yashil shaharlar, suv samaradorligi va toza energiyani qo'llab-quvvatlash</b></p>	<ul style="list-style-type: none"> <li>Iqtisodiyotning asosiy tarmoqlarini dekarbonizatsiya qilishdagi o'sish / Elektr energiyasi ishlab chiqarishda qayta tiklanadigan energiya ulushini oshirish</li> <li>Iqlim o'zgarishiga ta'sirchanlikni kamaytirish va shahar infratuzilmasini yaxshilash</li> <li>Resurs va energiya samaradorligini oshirish</li> </ul>
<ul style="list-style-type: none"> <li>Aholining yuqori o'sishi mehnat bozoriga bosim o'tkazadi, ish haqini pasaytiradi va emigratsiyani rag'batlantiradi.</li> <li>Mintaqaviy rivojlanishdagi katta nomutanosibliklar, bandlik imkoniyatlarining teng emasligi, KO'Bning moliyadan foydalanish imkoniyati cheklanganligi va ayollarning iqtisodiyotdagi ishtirokinining pastligi.</li> <li>AKT sohasi rivojlanmagan va tezkor internet qamrovi cheklangan.</li> <li>Innovatsiyalar va eksport salohiyati pastligicha qolmoqda. Cheklangan to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar oqimi.</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>So'nggi 5 yil ichida amalga oshirilgan ulkan bozor islohotlari.</li> <li>Zamonaviy ishlab chiqarish texnologiyalarini qo'llash va qiymat zinpoyasiga ko'tarilishni kuzatib borish.</li> <li>Hozirgi rahbariyat ijtimoiy va gender inkluzivligiga qaratilgan islohotlarni davom ettirishga qat'iy intiladi.</li> <li>Raqamlashtirish sohasini yaxshilash, jumladan, AKT sanoatini rivojlanishi va eksportini jadallashtirish tashabbuslari.</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>Xususiy sektorni qo'llab-quvvatlash YTTBning asosiy kuchi bo'lib, to'g'ridan-to'g'ri va bilvosita moliyalashtirish, risklarni taqsimlash, savdoni moliyalashtirish, biznes va siyosat bo'yicha maslahatlardan foydalanadi.</li> <li>Yuqori ta'sirchun gender siyosatini joriy etishni davom ettirish va yosh tadbirkorlarning moliya va biznes ko'nikmalariga kirish imkoniyatlarini oshirish uchun Banking mavjud imkoniyatlaridan foydalanish.</li> <li>Xususiy sektor va kommunal xizmatlar/davlat korxonalarida raqamli texnologiyalarga o'tishni tezlashtirish uchun siyosiy maslahat va moliyalashtirishni ta'minlash.</li> </ul>	<p><b>Xususiy sektorni rivojlantirish, bandlik, ko'nikmalar, inkluzivlik va raqamli texnologiyalarga o'tishni rivojlantirish</b></p>	<ul style="list-style-type: none"> <li>Kengaytirilgan qiymat zanjirlari va aloqalar orqali raqobatning kuchayishi</li> <li>Ko'nikmalar va moliyaviy yordam imkoniyatini oshirish</li> <li>Mahsulot va jarayon innovatsiyasini yaxshilash</li> </ul>
<ul style="list-style-type: none"> <li>Qonun ustuvorligining zaifligi, korrupsiya, davlat va davlat korxonalarini xaridlarida shaffoflikning yo'qligi asosiy muammolardir.</li> <li>Korporativ boshqaruvning noto'g'rligi biznes muhitini buzadi.</li> <li>Muhim sohalarda va moliya sektorida yuqori darajadagi davlat ulushi.</li> <li>Tegishli DXSh tizimi yo'qligi xususiy sektorning infratuzilmani rivojlantirishdagi ishtirokini cheklaydi.</li> <li>Transport aloqasidagi asosiy infratuzilma va ma'muriy to'siqlar</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>Normativ-huquqiy hujjatlar sifati, shartnomalar ijrosini ta'minlash, davlat samaradorligi va elektron boshqaruv xizmatlarining sekin, ammo izchil yaxshilanishi.</li> <li>Xususiy lashtirish bo'yicha bitimlarga tayyorgarlik ko'rilmogda, bu tizimli islohotlar bilan qo'llab-quvvatlanmogda. Xususiy banklar ulushi 2025-yilga kelib 60 foizga oshishi kutilmogda.</li> <li>Infratuzilmaga katta investitsiya rejalari va DXSh tuzilmalaridan foydalanishga tayyorlik.</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>YTTB davlat sektorida raqamli texnologiyalar va takomillashtirilgan xarid amaliyotini qo'llash orqali yaxshi boshqaruv bo'yicha maslahat berish imkoniyatiga ega.</li> <li>Bank siyosat, institutsional va tranzaksiya darajasida davlat korxonalaro/banklari transformatsiyasi va davlat-xususiy sheriklikni qo'llab-quvvatlashni kuchaytirishga qodir.</li> <li>Bank allaqachon ustuvor investitsiyalar ro'yxatini va transport aloqasi bo'yicha yumshoq chora-tadbirlarni tayyorlagan va ularning ijrosini qo'llab-quvvatlashga tayyor.</li> </ul>	<p><b>Iqtisodiy boshqaruv, biznes muhiti va infratuzilma aloqalarini yaxshilashga ko'maklashish</b></p>	<ul style="list-style-type: none"> <li>Boshqaruv amaliyotini takomillashtirish va xususiy sektor ishtirokini oshirish</li> <li>Institutlar sifatini yaxshilash va qonun ustuvorligini mustahkamlash</li> <li>Mintaqaviy va global aloqani kengaytirish</li> </ul>

# 5. Chora-Tadbirlar va Natijalar (1/3)



## 1-ustuvor yo'nalish: Dekarbonizatsiya, yashil shaharlar, suv samaradorligi va toza energiyani qo'llab-quvvatlash

Asosiy maqsadlar	Chora-tadbirlar	Kuzatuv ko'rsatkichlari (natijalar)
Iqtisodiyotning asosiy tarmoqlarini dekarbonizatsiya qilishni rivojlantirish / Elektr energiyasi ishlab chiqarishda qayta tiklanadigan energiya ulushini oshirish	<ul style="list-style-type: none"> <li>Kam uglerodli yo'llarni, uglerod bozorlarini ishlab chiqish va amalga oshirish, mijozlarni ilg'or xalqaro amaliyotga muvofiq korporativ iqlim boshqaruvinu qabul qilishda qo'llab-quvvatlash.</li> <li>Energetika kompaniyalari, shuningdek, energiya va boshqa chiqindi ko'p chiqaradigan tarmoqlardagi kompaniyalar uchun kelgusida tijoratlashtirish, moliyalashtirish va amalga oshirishni qo'llab-quvvatlash, energiya tizimlarini modernizatsiya qilish bo'yicha siyosiy maslahatlar. Xalqaro metan dasturini amalga oshirishni qo'llab-quvvatlash.</li> <li>Tozaroq va samaraliroq energiya ishlab chiqarishni, qayta tiklanadigan energiya ishlab chiqarishni (shamol, quyosh) kengaytirishni moliyalashtirish, shuningdek tenderlar bo'yicha maslahatlar va energetika sohasidagi keyingi tartibga solish va huquqiy islohotlar bo'yicha siyosiy maslahatlar bilan qo'llab-quvvatlash.</li> <li>Energiyani taqsimlash va uzatish tarmoqlarini modernizatsiya qilish hamda energiyani saqlash bo'yicha yechimlarni kengaytirish uchun moliyalashtirish va siyosiy maslahatlar berish, shu jumladan tariflarni isloh qilish.</li> <li>Energiya tarmoqlarini himoya qilish, siyosiy maslahatlar berish va moliyalashtirish orqali energetika bo'yicha mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirish.</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>CO2 emissiyasi kamaydi (Ktonna/yil)</li> <li>O'rnatilgan qayta tiklanadigan energiya quvvati (GV)</li> </ul>
Iqlim o'zgarishiga ta'sirchanlikni kamaytirish va shahar infratuzilmasini yaxshilash	<ul style="list-style-type: none"> <li>Shahar infratuzilmasini moliyalashtirish, siyosiy maslahatlar berish va islohotlarni amalga oshirishni qo'llab-quvvatlash, shu jumladan "Yashil shaharlar" dasturi, shahar kommunal xizmatlarini tijoratlashtirish, elektron mobillik va jamoat transportini isloh qilishni qo'llab-quvvatlash (masalan, yashil avtobuslar, to'lov infratuzilmasi).</li> <li>Siyosiy maslahat, moliyalashtirish hamda investitsiyalarni tayyorlash va amalga oshirishga ko'maklashish orqali suv va oqava suv investitsiyalarini qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish. Qattiq maishiy chiqindilarni boshqarish, tuman tarmoqlari (isitish va sovutish) va ko'chalarni yoritish kabi boshqa kommunal xizmatlarni tijoratlashtirish va modernizatsiya qilishni qo'llab-quvvatlash.</li> <li>Boshqa kommunal xizmatlarni, jumladan qattiq maishiy chiqindilarni boshqarish va tuman tarmoqlarini (isitish va sovutish) tijoratlashtirish hamda modernizatsiya qilishni qo'llab-quvvatlash.</li> <li>Sug'orish tizimlarini modernizatsiya qilishni moliyalashtirish va maslahatlar berish (tartibga solish va ekspluatatsiya vazifalarini bir-biridan ajratish; irrigatsiya kompaniyalarini tijoratlashtirish; tarif islohoti; suvni o'lchash, yangi, iqlimga mos texnologiyalar).</li> <li>Markaziy Osiyo uchun YTTB Atruf-muhitni yaxshilash hisobi (AMYH) doirasida uranni tozalash bo'yicha tegishli loyihalarni amalga oshirishni qo'llab-quvvatlash.</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>Tejalgan suv (m3/y)</li> <li>Tejalgan elektr energiyasi (kVt/yil)</li> <li>Kommunal xizmatlardan foydalanish imkoniyatlari yaxshilangan xo'jaliklar soni</li> </ul>
Resurs va energiya samaradorligini oshirish	<ul style="list-style-type: none"> <li>KO'B uchun maslahatlar bilan bir qatorda Yashil iqtisodiyotni moliyalashtirish vositalarini oshirish. Moliyaviy sektorni ko'kalamzorlashtirishni qo'llab-quvvatlash (masalan, Parij kelishuviga muvofiq XMllarga yordam).</li> <li>Tabiiy resurslar va tegishli huquqiy-me'yoriy bazalar, jumladan islohotlar ijrosi va EIB bo'yicha siyosiy maslahatlar. Tog'-kon sanoati korxonalarini tijoratlashtirishni qo'llab-quvvatlash, yangi ishtirokchilarni jalb qilish va xususiy sektor ishtirokini kengaytirish.</li> <li>Yashil boshqaruvga, jumladan, EIB standartlariga, xususiy sektorda oqava suvlarni yaxshiroq tozalashga, binolarda energiya samaradorligiga va qiymat zanjiri bo'ylab barqarorlikka e'tibor qaratish.</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>Tejalgan asosiy energiya (GJ/yil)</li> </ul>



# 5. Chora-Tadbirlar va Natijalar (2/3)



## 2-ustuvor yo'nalish: Xususiy sektorni rivojlantirish, bandlik, ko'nikmalar, inklyuzivlik va raqamli islohotlarni rivojlantirish

Asosiy Maqsadlar	Chora-tadbirlar	Kuzatuv ko'rsatkichlari (natijalar)
<b>Kengaytirilgan qiymat zanjirlari va aloqalar orqali raqobatning kuchayishi</b>	<ul style="list-style-type: none"><li>Xususiy sektorni moliyalashtirishni kengaytirish, jumladan to'g'ridan-to'g'ri kreditlar, KO'B kredit liniyalari, risklarni taqsimlash imkoniyatlari, savdoni moliyalashtirish, mahalliy valyutada kreditlash, ham to'g'ridan-to'g'ri, ham aktsiyadorlik fondlari orqali aktsiyadorlik investitsiyalarini ko'paytirish. Tarmoqlar va hududlar bo'ylab to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar jalb etilishini rag'batlantirish.</li><li>Kichik biznes uchun maslahatlarni davom ettirish, maslahat va moliyalashtirish o'rtasidagi aloqalarni mustahkamlash, ishtirokchilar ko'lamini oshirish.</li><li>Moliyaviy vositalar, biznes va siyosiy maslahatlar yordamida kichikroq mahalliy korxonalar bilan mustahkam aloqalarni o'z ichiga oluvchi agregatorlarning roli va kengayishini qo'llab-quvvatlash.</li><li>Inklyuziv mahalliy ta'minot zanjirlarini kengaytirishni qo'llab-quvvatlash (masalan, yangi faktoring qonunini joriy etish va amaliyotga tatbiq etish, XMI bilan ishlash). Mintaqaviy va global qiymat zanjirlarini kengaytirish va chuqurlashtirishni qo'llab-quvvatlash (masalan, logistika obyektlarini moliyalashtirish).</li></ul>	<ul style="list-style-type: none"><li>Korporativ operatsiyalar va Kerakli barqaror moliyalashtirish tranzaksiyalari hajmi / soni</li><li>MKO'K subyektlariga berilgan kredit liniyalari hajmi/soni</li><li>Mahsuldorligi oshgan / daromadi oshgan KBM mijozlarining soni</li><li>Bank tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan SOD operatsiyalari hajmi / soni</li></ul>
<b>Ko'nikmalar va moliyaviy yordam olish imkoniyatini oshirish</b>	<ul style="list-style-type: none"><li>Moliyaviy yordamdan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish va ko'nikmalardagi kamchiliklarni bartaraf etish uchun moliyaviy va maslahat xizmatlarini taqdim etish orqali inklyuziv va genderga mos moliyaviy tizimga o'tishni qo'llab-quvvatlash (masalan, Biznesdagi ayollar, Malaka kengashlari) va "Biznesdagi yoshlar" dasturini ishga tushirish.</li><li>Tibbiyot iqtisodiyotiga investitsiyalar uchun imkoniyatlar yaratishga yordam berish (masalan, shifoxonalardagi DXSh).</li><li>Mintaqaviy nomutanosibliklarni bartaraf etish yo'llarini izlash, jumladan, kam ta'minlangan hududlarda moliyalashtirish va maslahat xizmatlarini kengaytirish.</li><li>Mahalliy akseleratorlar va inkubatorlarni qo'llab-quvvatlovchi Star Ventures dasturini kengaytirishni davom ettirish.</li></ul>	<ul style="list-style-type: none"><li>Biznesdagi Ayollar / Biznesdagi Yoshlar uchun berilgan sub-kreditlar hajmi / soni</li><li>Poytaxtdan tashqaridagi MKO'K sub-kreditlarining hajmi / soni</li></ul>
<b>Mahsulot va jarayon innovatsiyasini yaxshilash</b>	<ul style="list-style-type: none"><li>Xususiy sektorda raqamlashtirish bo'yicha moliya va maslahatlar, jumladan IT ko'nikmalarini oshirish, yaqinda boshlangan Star Venture dasturi orqali texnologiya ekotizimini dastlabki bosqichda qo'llab-quvvatlash va moliya sektorini raqamlashtirish.</li><li>Kiberxavfsizlikni kuchaytirish, elektron tijoratni kengaytirishga ko'maklashish (masalan, elektron to'lov platformalari va elektron bozorlar) uchun hokimiyatlarga siyosiy maslahatlar va korporativ va moliyaviy sektor mijozlari uchun biznes maslahatlar berish.</li><li>Pul bozorlarini, qonunchilik va me'yoriy bazani, kapital bozori infratuzilmasini rivojlantirish, korporativ obligatsiyalar chiqarish va DOTlarni qo'llab-quvvatlash orqali kapital bozorini moliyalashtirish asoslarini mustahkamlash.</li></ul>	<ul style="list-style-type: none"><li>Raqamlashtirish loyihalarini amalga oshirayotgan korporativ va KBM mijozlari soni</li><li>Kapital bozorlarida amalga oshirilgan islohotlar (sifatli)</li></ul>



# 5. Chora-tadbirlar va Natijalar (3/3)



## 3-ustuvor yo'nalish: Iqtisodiy boshqaruv, biznes muhiti va infratuzilma aloqalarini yaxshilashga ko'maklashish

Asosiy Maqsadlar	Chora-tadbirlar	Kuzatuv ko'rsatkichlari (natijalar)
<b>Boshqaruv amaliyotini takomillashtirish va xususiy sektor ishtirokini oshirish</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>Davlat mulkini boshqarish va tegishli DK/DB boshqaruv islohotlari bo'yicha siyosiy maslahatlar orqali DK va DB transformatsiyasini qo'llab-quvvatlashni davom ettirish. Investitsion mijozlarning korporativ boshqaruvini va iqlim risklar, aktivlarni boshqarish va tijoratlashtirishni yaxshilash. Xususiy sektor mijozlarida korporativ boshqaruvni takomillashtirishni qo'llab-quvvatlash.</li> <li>Xususiylashtirishni xususiylashtirishdan oldingi kelishuvlar, asosiy bitimlarda ishtirok etish, xususiylashtirishdan keyingi qayta qurish va korporativ boshqaruvdagi o'zgarishlar orqali qo'llab-quvvatlash.</li> <li>Maslahat ishlarini kuchaytirish va asosiy tranzaksiyalarni moliyalashtirish orqali DXShni rag'batlantirish.</li> <li>Hukumat bilan 2024-yilda qabul qilinuvchi KO'B strategiyasi ustida ishlashni davom ettirish va uni amalga oshirishga yordam berish.</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>Korporativ boshqaruv va/yoki standartlarni takomillashtirayotgan mijozlar soni (jumladan, davlat korxonalari)</li> <li>Davlat korxonalarida amalga oshirilgan huquqiy va tartibga soluvchi islohotlar (sifatli)</li> </ul>
<b>Institullarning sifatini yaxshilash va qonun ustuvorligini mustahkamlash</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>Davlat sektorida raqamlashtirish bo'yicha siyosiy maslahatlar, jumladan, xususiy sektor uchun raqamli yechimlar, elektron xaridlar, biznesni tekshirish uchun raqamli yechimlar berish.</li> <li>Buxgalteriya hisobi standartlarini mustahkamlash va biznes reyestrini takomillashtirishni qo'llab-quvvatlash.</li> <li>Xorijiy investorlar kengashi orqali davlat-xususiy sektorning samarali muloqotini rivojlantirish va uning tavsiyalarini amalga oshirishni qo'llab-quvvatlash.</li> <li>Huquqiy va tartibga soluvchi siyosat bo'yicha maslahatlar, tegishli treninglar va malakalarni oshirish orqali davlat xaridlari sohasidagi islohotlar uchun maslahatlar berish.</li> <li>Moliyaviy va tuzilmaviy yechimlardan foydalanish imkoniyatlarini yaxshilash uchun korxonalar va jismoniy shaxslarning to'lovga layoqatsizligi to'g'risidagi yangi qonunlarni tatbiq etishda yordam berish.</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>Amalga oshirilgan tartibga solish islohoti chora-tadbirlari (sifatli)</li> </ul>
<b>Mintaqaviy va global aloqani kuchaytirish</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>Mahalliy va mintaqaviy/global aloqani yaxshilash (masalan, elektr uzatish liniyalari, logistika, transport aloqalari, jumladan, Transkaspriy xalqaro transport yo'nalishi) uchun transport va energetika infratuzilmasi tarmog'iga investitsiyalarni jalb qilish maqsadida maqsadli va dalillarga asoslangan tahliliy ishlar orqali moliyalashtirish va siyosiy maslahatlar imkoniyatlarini izlash, YTTB faoliyat yurituvchi sohalarda tegishli sektor islohotiga hissa qo'shish.</li> <li>Tarifsiz savdo to'siqlariga e'tibor qarating, savdo to'siqlarini kamaytirish bo'yicha siyosiy maslahatlar berish.</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>Infratuzilma sifatini yaxshilash (sifatli)</li> <li>Mintaqalar ichida/bo'ylab infratuzilmadan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish</li> </ul>





# 6. YTTB Faoliyat Sohalarida Xalqaro Hamkorlarning Bir-Birini To'ldirishi



## YTTB Faoliyat Sohalarini

Ildikativ o'rtacha yillik investitsiyalar/grantlar (mln yevro, 2018-2022)	Sektorlar									Tutash masalalar			
	Sanoat, savdo va agrobiznes					Barqaror infratuzilma		MI		Strategik tashabbuslar			
	Agr obiz nes	Ishl ab chiq arish va xiz matlar	Mul k va turizm	TMT	Tabiy boyl iklar	Energ iya	Infras truktura	Ban k	Ban k bo'l mag an Millar	Yas hil iqtis odiy ot	Inkly uzivlik & gen der	Mah alliy valy uta va kapit al bozorlari	Kich ik bizn eslar
OTB*	692	€				€P	€	€P				€	
JB	487	€			€P	€L	€						
XMK	129	€P						€P					
FTA	118					€P				€L			
YIB	65					€	€						€
YI	27	€P					€				€P		
YTTB	557	€	€			€L	€L	€L		€L	€L		€P

€ Muhim investitsiyalar sohasi

● Asosiy e'tibor xususiy sektorga qaratilgan

P Muhim siyosiy maslahatlar sohasi

○ Asosiy e'tibor davlat sektoriga qaratilgan

Eslatma: KTB/FTA/YI faoliyati xaritasi ommaviy ochiq ma'lumotlarga asoslangan. 2018-2022-yillar davomida imzolangan investitsiyalar umumiy hajming 5% dan ortig'ini tashkil qilgan loyihalar muhim investitsiyalar hisoblanadi.

\*Mavjud ma'lumotlardan kelib chiqib, OTB investitsiyalariga faqat 2022-yil mayigacha bo'lgan suveren loyihalar kiradi

## Hamkorlik uchun potentsial sohalari



### Yashil

- KTBlar bilan hamkorlikni davom ettirish va energiya samaradorligini oshirishni moliyalashtirish, dekarbonizatsiya, qayta tiklanadigan energiya islohoti va rivojlanishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha Yevropa Ittifoqi bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish.



### Raqobatbardosh

- XMK bilan bank sektorini isloh qilish, XMI orqali moliyalashtirishni ko'paytirish va xususiyashtirish bo'yicha DBLarning salohiyatini oshirishni qo'llab-quvvatlashda hamkorlikni davom ettirish.
- DXSh asoslarini va umumiy biznes muhitini yaxshilash uchun hamkor KTBlar bilan hamkorlik qilish.
- Moliyaviy inklyuzivlik va raqamlashtirish bo'yicha Yevropa Ittifoqi bilan hamkorlik qilish.



### Integratsiyalashgan

- Transport infratuzilmasini va xalqaro logistikani yaxshilash uchun birgalikda investitsiya imkoniyatlarini izlash.
- YI va KTBlar bilan mintaqaviy transport integratsiyasi uchun zarur bo'lgan yumshoq chora-tadbirlarni amalga oshirish bo'yicha hamkorlik qilish

# 7. Strategiya Ijrosidagi Tavakkalchiliklar, Ekologik va Ijtimoiy Oqibatlar



European Bank  
for Reconstruction and Development

Strategiyani amalga oshirishdagi tavakkalchiliklar	Ehtimollik	Ta'sir	Ekologik va ijtimoiy oqibatlar
<ul style="list-style-type: none"> <li><b>Keyinchalik chuqur tarkibiy islohotlarni,</b> ayniqsa, iqtisodiyotda xususiy sektor ishtirokini va davlat mulkini xususiylashtirishni <b>mahalliy qo'llab-quvvatlashning qisqarishi</b> xavfi.</li> </ul>	●	●	<ul style="list-style-type: none"> <li><b>Strategik ekologik va ijtimoiy baholash:</b> E&amp;I xavf asosida loyiha joylarini taqsimlashni ta'minlash uchun davlat manfaatdor tomonlari ko'magida asosiy sektorlarda SEIB ishlab chiqilganligini ta'minlash.</li> <li><b>Atrof-muhit va ijtimoiy ta'sirlarni, manfaatdor tomonlarning ishtirokini baholash hamda boshqarish:</b> Loyihalarning to'g'ridan-to'g'ri, bilvosita va umumiy ta'sirini E&amp;I ta'sirini baholashni amalga oshirish orqali aniqlash.</li> <li><b>Mehnat va ishlash sharoitlari:</b> Mijozlarning kadrlar siyosati va mehnat amaliyotining YTTB talablariga muvofiqligini ta'minlash, asosiy e'tiborni ishchilar tashkilotlari, bolalar va majburiy mehnat, ish vaqti va ish haqi standartlariga qaratish, ozchilik guruhlar, ayollar va mehnat muhojirlariga nisbatan kamsitishlarga barham berish. Keng miqyosda ishchilarni qisqartirish xususiylashtirish bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Mijozlarning qishloq xo'jaligi, to'qimachilik, qayta tiklanadigan energiya sohalarida ta'minot zanjiri xatarlarini boshqarish qobiliyatiga e'tibor qaratishga to'g'ri kelishi mumkin.</li> <li><b>Dekarbonizatsiya, resurslar samaradorligi, ifloslanishning oldini olish va nazorat qilish:</b> issiqxona gazini chiqindilarini, tabiiy resurslarni iste'mol qilishni, ifloslanishni kamaytirish uchun energetika sektorida past uglerodli yo'lni (PUY) amalga oshirishni qo'llab-quvvatlash va boshqa energiya talab qiladigan sektorlar uchun PUYni ishlab chiqish.</li> <li><b>Iqlim o'zgarishiga chidamlilik:</b> Iqlim xatarlarini baholash, iqlim xavfini boshqarishni va barqarorlik choralari loyihaga kiritish.</li> <li><b>Ekologik, ijtimoiy va boshqaruv (EIB) ta'siri:</b> EIB standartlarini joriy etishni rag'batlantirish.</li> <li><b>Salomatlik va xavfsizlik:</b> kasbiy va jamiyat salomatligi hamda xavfsizlik madaniyati va amaliyoti, jumladan toza ichimlik suvi ta'minoti va oziq-ovqat xavfsizligi. Yo'l harakati xavfsizligi va mijozlar transportini boshqarish transport loyihalari uchun ustuvor masalalar bo'lib, TH mablag'larini talab qilishi mumkin.</li> <li><b>Yer sotib olish, majburiy ko'chirish va iqtisodiy ko'chirish:</b> Ekologik va Ijtimoiy Siyosat 2019 bo'yicha YTTB talablariga muvofiq yer sotib olish va ko'chirish ta'sirini boshqarish bo'yicha mijozlarning salohiyatini kuchaytirish. Mulk foydalanuvchilarining qayerda yuridik huquqi bo'lmasa, mijozlar kompensatsiya to'lashlari va yashash vositalarining tiklanishi milliy qonunchilikka va bank siyosati talablari muvofiq ta'minlanishi kerak. Iqtisodiy va/yoki jismonan ko'chirilgan odamlarga ko'chirish jarayoni davomida mazmunli maslahatlar berilishini ta'minlash uchun mijozlarni qo'llab-quvvatlash va ularga o'z tashvishlari va takliflarini bildirish uchun mavjud shikoyat mexanizmlari taqdim etilishi kerak.</li> <li><b>Biologik xilma-xillikni saqlash va tirik tabiiy resurslarni barqaror boshqarish:</b> Qayta tiklanadigan energiya manbalari va infratuzilma loyihalari ta'sirchan yashash joylari, qo'riqlanadigan hududlar yoki taklif qilingan yoki mavjud Natura 2000 joylarini buzishi yoki parchalashi mumkin. Biologik xilma-xillikka ta'sirni baholashni ta'minlash va bu ta'sirlarning oldini olish yoki minimallashtirish uchun kerak bo'lganda TH yordamini ko'rsatish zarur. Nozik joylarga ehtiyot bo'lish uchun loyihalarga yerlarni ajratishdan oldin Hukumat tomonidan loyihaning dastlabki E&amp;I skriningi talab qilinadi. O'zbekiston hududidagi Orol dengizi havzasi segmentlari uchun Tabiiy kapitalni baholash (TKB) boshlang'ich sinovidan so'ng, YTTB ushbu mintaqada baholash natijasida aniqlangan tabiiy bilan bog'liq risklarni boshqarish bo'yicha ilg'or amaliyotlar va investitsiya imkoniyatlarini joriy etishni ko'rib chiqadi.</li> <li><b>Madaniy meros:</b> Nozik madaniy merosni saqlab qolish uchun asosiy manfaatdor tomonlarni aniqlash va maslahatlashish, loyihalar bilan bog'liq meros obyektlarini saqlash bo'yicha ilg'or xalqaro amaliyotni targ'ib qilish.</li> <li><b>Monitoring va nazorat:</b> E&amp;I samaradorligini kuzatib borish va Bank portfoliosi bilan bog'liq eski muammolarni hal qilish.</li> </ul>
<ul style="list-style-type: none"> <li><b>Ma'muriy salohiyatning zaifligi va hukumatning tez-tez o'zgarishi</b> islohotlar tezligiga ta'sir qilishi, loyihani tayyorlash va amalga oshirishni kechiktirishi mumkin.</li> </ul>	●	●	
<ul style="list-style-type: none"> <li><b>Mahalliy valyutada moliyalashtirishning cheklanganligi</b> YTTBning korporatsiyalar va KO'B korxonalariga kredit berishini cheklaydi.</li> </ul>	●	●	
<ul style="list-style-type: none"> <li>Hukumatning bank sektorida xususiylashtirish va tarkibiy islohotlarni amalga oshirishga intilishlariga qaramay, <b>moliyaviy bozorlarda DBlarning doimiy hukmronligi va KO'B subyektlari uchun mavjud qulay to'g'ridan-to'g'ri kreditlash</b> YTTB moliyaviy yordamini keraksiz qilib qo'yishi mumkin.</li> </ul>	●	●	

● Yuqori ● O'rt ● Past



# 8. Donorlar bilan Hamkorlikni Baholash

## Yangi davlat strategiyasi davri uchun ehtiyojlarni baholash

Davlat strategiyasi maqsadlariga erishish uchun quyidagi donor mablag'larini kerak bo'ladi:

- Energetika sektorini yanada isloh qilish (jumladan, tariflar), transport sektorini isloh qilish (jumladan, investitsiyalarni tayyorlash va mintaqaviy transport aloqasi bo'yicha amalga oshiriladigan chora-tadbirlar), boshqaruvni takomillashtirish - davlat korxonalarini o'zgartirish, xaridlarni yaxshilash va davlat muassasalarida xususiy sektor xizmatlarini raqamlashtirish, to'lovga layoqatsizlik bo'yicha qonunni amalga oshirish uchun TH grantlari.
- Imtiyozli kreditlar, tavakkalchilikni taqsimlash vositalari va ta'minot zanjirini yaxshilash, malaka va moliyaviy yordamdan foydalanish imkoniyatini oshirish, mahalliy kompaniyalarda mahsulot va jarayon innovatsiyasini yaxshilash uchun TH grantlari.
- Xususiy kompaniyalarda resurslar va energiya samaradorligini oshirishga yordam beradigan rag'batlantiruvchi grantlar va imtiyozli kreditlar.
- Suvdan foydalanish samaradorligini oshirish va kommunal infratuzilmani ko'kalamzorlashtirish uchun imtiyozli moliyashtirish
- Energetika sohasida yangi texnologiyalarni joriy etish, mintaqaviy logistika va transport infratuzilmasiga investitsiyalarni jadallashtirish uchun imtiyozli kreditlar hamda kafolatlar.


## Donorlar mablag'larining potentsial manbalari

- Yevropa Ittifoqining Osiyo-Tinch okeani infratuzilma fondi (OTOIF) va Yevropa Ittifoqining O'zbekiston uchun Ko'p yillik indikativ dasturi (KYID) infratuzilma, raqamlashtirish, KO'B va agrobiznes sohaslarida kapital va TH grantlari uchun manba bo'lishi mumkin. YI BRYF+ doirasida energiya islohoti, moliyaviy inklyuzivlik, raqamli aloqa va EIB risklarini taqsimlash hamda transport aloqasi uchun moliyashtirilgan kafolatlar mavjud bo'lishi mumkin.
- Eng yirik ikki tomonlama donor hisoblangan Yaponiya keng doiradagi masalalarni qamrab oluvchi TH loyihalarini moliyashtirishda davom etishi mumkin. Ular orasiga sifatli infratuzilmani qo'llab-quvvatlash, energetika va atrof-muhit innovatsiyasi, kapital bozorini rivojlantirish va inson resurslari xilma-xilligini rag'batlantirish kiradi. Ikkinchi yirik donor Koreya yashil islohotlar va mahalliy xususiy sektorni kengaytirishga qaratilgan THni moliyashtirishga tayyor.
- Hozirda O'zbekiston Barqaror infratuzilma fondidan institutsional va salohiyatni oshirish, iqtisodiy va huquqiy islohotlarni qo'llab-quvvatlovchi loyihalarga 12 million yevrogacha mablag' yoki Bankning investitsiya operatsiyalarini birgalikda moliyalash uchun investitsiya grantlari olish huquqiga ega.
- Shuningdek, ko'p tomonlama fondlar tomonidan amalga oshirilayotgan bir qancha dasturlar, jumladan EIFning Iqlimga chidamlilik bo'yicha boshlang'ich dasturi, GEFning Iqlim o'zgarishi bo'yicha moliya va texnologiyalar transferi markazi (FINTECC) va YIF korporativ sektori uchun Yuqori ta'sir dasturi ham ko'mak ko'rsatishi mumkin.

## Moliyaviy manba uchun tanlangan ko'rsatkichlar


	YTTB mintaqaviy protsentil darajasi <sup>1</sup>	
Aholi jon boshiga YaIM (DXSh, joriy. \$) <sup>2</sup>	8,497	11 <sup>th</sup>
RRY ro'yxatidagi davlat	Yes	N/A
RRY Yalpi milliy daromad ulushi sifatida (%) <sup>3</sup>	1.67	38 <sup>th</sup>
Aholi jon boshiga RRY (\$ - joriy narxlar) <sup>3</sup>	34.09	25 <sup>th</sup>

## 2018-2022-yillarda donor mablag'lar (mln yevro)<sup>4</sup>



■ TC ■ Co-Investment Grants and Loans

## 2022-yilga grantlardan foydalanish<sup>5</sup>



1. Odiy protsentil darajasi O'zbekistondan pastroq bo'lgan YTTBga a'zo davlatlar iqtisodlarining ulushi sifatida ko'rsatilgan. 2. WDI (2021) 3. IHTT (2021) 4. Qo'shma investitsiya summalari haqida hisobot berish metodologiyasi mijozlar imzosi bilan 2022-yildagi majburiyat darajasidagi ko'rsatma ko'rinishiga o'zgartirildi. 2018-2022-yillar TH ma'lumotlari va Qo'shma investitsiya 2022 summasi majburiyat darajasidagi ko'rsatmalarga, 2018-2021-yillarga mo'ljallangan qo'shma investitsiya granti summalari esa mijozlar imzolariga asoslanadi. 5. Maqsadli donor mablag'larining asosiy o'tish sifatiga asoslanadi.



**European Bank**  
for Reconstruction and Development

Ilova



**European Bank**  
for Reconstruction and Development



# 1-Ilova – 1-modda bo'yicha siyosiy baholash (1/8)

Garchi O'zbekiston Bankni ta'xis etish to'g'risidagi moddalarda ko'rsatilgan siyosiy tamoyillar va ularning ijrosiga sodiq qolgan bo'lsa-da, 2018-yil sentabrida oldingi Davlat strategiyasi tasdiqlanganidan buyon taraqqiyot bir tekisda amalga oshirilmadi. Oldingi Davlat strategiyasi davrining birinchi qismida taraqqiyot izchilroq bo'lgan, ammo ikkinchisida sekinroq va tarqoqroq bo'ldi. Bank 2017-yilda qayta ishga kirishgunga qadar O'zbekistonning 1-modda tamoyillariga sodiqligi va uning ijrosi minimal darajada edi. O'shandan beri sezilarli yutuqlarga erishildi, ammo asosiy muammolar hamon saqlanib qolmoqda.

Demokratik va inson huquqlari standartlarini nazorat qiluvchi xalqaro tuzilmalar Prezident Mirziyoyev 2016-yil oxirida prezidentlikka kelganidan buyon O'zbekistonda erishilgan yutuqlarni ijobiy baholashda davom etmoqda. Avvalgi Davlat strategiyasi davrida O'zbekiston tegishli xalqaro tuzilmalar bilan hamkorlikni sezilarli darajada kuchaytirdi. 2020-yil oktabr oyida 2021-23-yillar uchun BMT Inson huquqlari bo'yicha kengashining a'zoliciga saylandi. O'zbekiston Inson huquqlari forumi hisobotidagi "davlat tomonidan majburiy mehnat" paxta yig'im-terimida qo'llanilmaydi, degan xulosadan so'ng, 2022-yil mart oyida o'zbek paxtasiga nisbatan Cotton Campaign boykotining olib tashlanishi O'zbekistonning so'nggi yillardagi taraqqiyotida muhim voqea bo'ldi. Yana bir muhim qadam 2023-yilning aprel oyida O'zbekiston parlamenti oiladagi zo'raonlikni alohida jinoiy javobgarlikka tortuvchi qonun loyihasini ma'qullagani bo'ldi.<sup>2</sup>

2023-yil aprel oyida o'tkazilgan umumxalq referendumidan so'ng qabul qilingan O'zbekistonning yangi Konstitutsiyasi 1-modda tamoyillariga avvalgisidan ko'ra ko'proq e'tibor qaratishni ko'zda tutadi<sup>3</sup>. U Konstitutsiyaning bevosita huquqiy qo'llanilishi prinsipini va xalqaro shartnomalarda belgilangan mamlakat majburiyatlarining ichki qonunchilikdan ustunligini belgilaydi, bu esa demokratik va inson huquqlari standartlarini amaliyotga joriy etishga yordam beradi. Aniqlik, yangi Konstitutsiyada sud hokimiyati mustaqilligi uchun qator himoya choralari ko'zda tutilgan. U fuqarolik jamiyati va ommaviy axborot vositalari erkinligi uchun oldingi himoya choralari keng ko'lamda takrorlaydi va bular erkin emas, balki majburiy tusga ega

Asosiy yangi inson huquqlari orasida u o'lim jazosini taqiqlaydi. Shuningdek, u ijtimoiy, madaniy, ekologik va iqtisodiy huquqlarning ancha keng doirasini qamrab oladi.

Biroq yangi Konstitutsiyada prezidentlik muddatining besh yildan yetti yilgacha uzaytirilgani va avvalgi Konstitutsiyaga muvofiq Prezident Mirziyoyevning vakolat muddatini bekor qilgan va unga yana ikki muddatga saylanish imkonini bergan parlament qarori konstitutsiyaviy kuchga egaligi haqidagi Konstitutsiyaviy sudning qarori prezidentlik vakolatlarining nomutanosib ravishda kuchayganini namoyish etdi. Demokratik va inson huquqlari me'yorlarini kuzatuvchi xalqaro tashkilotlar O'zbekistonga nisbatan qator xavotirlarni bildirishda davom etmoqda. Bunga quyidagilar kiradi: chinakam mustaqil siyosiy muxolifat uchun maydon yo'qligi; erkaklar o'rtasidagi bir jinsli munosabatlarni jinoyat deb hisoblash; mustaqil jurnalistlar va blogerlarni jinoiy javobgarlikka tortish; fuqarolik jamiyati tashkilotlarini ro'yxatdan o'tkazish va faoliyat olib borishini cheklovchi qonunchilik bazasi.

## ERKIN SAYLOVLAR VA VAKILLIK HUKUMATI

### Erkin, adolatli va raqobatbardosh saylovlar

2023-yil aprelda qabul qilingan O'zbekiston Konstitutsiyasi saylovlarni erkin, adolatli va raqobatbardosh o'tkazishning huquqiy asoslarini belgilab berdi. 36-moddada "O'zbekiston Respublikasi fuqarolari jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita hamda o'z vakillari orqali ishtirok etish huquqiga ega", deyilgan. 129-moddada "mustaqillik, qonuniylik, kollegiallik, oshkorlik va adolatlilik" tamoyillariga asoslanib, Prezidentlik, Oliy Majlisiga, viloyatlar, tumanlar, shaharlar davlat hokimiyati vakillik organlariga saylovlarni hamda referendumlarni o'tkazish uchun doimiy faoliyat yurituvchi Markaziy saylov komissiyasi tashkil etilgan. O'zbekistonda mustaqillikka erishgandan so'ng erkin saylovlar va vakillik hokimiyati tamoyillarining qo'llanilishi sustlashdi. Birinchi Prezident Karimov davrida Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkilotining Demokratik institutlar va inson huquqlari bo'yicha byurosi (DIH) faqat cheklangan doiradagi saylovlarni kuzatish missiyalarini amalga oshirgan va ularning tavsiyalari, asosan, b

1. "O'tgan olti yil ichida O'zbekistondagi o'zgarishlar bo'yicha ko'p ishlar qilindi va men Prezidentning kelajakda inson huquqlarini markaziy o'ringa chiqarishni maqsad qilganini chuqur qadrlayman. Shuni unutmangimiz kerakki, inson huquqlari bu hech qachon tugamaydigan masala". BMT Inson Huquqlari Kengashining Toshkent shahridagi bayonoti, 15.03.2023. 2 Xalqaro fuqarolik jamiyati tashkilotlari bu harakatni olqishladi. Masalan, quyidagi hujjatga qarang: "O'zbekiston: Parlament oiladagi zo'raonlikni jinoiy javobgarlikka tortish to'g'risidagi uzoq kutilgan qonunni qabul qildi". Xalqaro Amnitiya, 06.04.2023.

Prezident Mirziyoyev rahnamoligida O‘zbekiston hukumati bilan DIHB o‘rtasida hamkorlik darajasi oshdi va DIHB keyingi barcha milliy saylovlarda saylovni har tomonlama monitoring qilish missiyalarini amalga oshirdi hamda tavsiyalarning aksariyati qabul qilindi.<sup>4</sup> Biroq amalda saylovlarning erkin, adolatli va raqobatbardosh o‘tkazilishini ta‘minlash borasidagi ishlar cheklangan.<sup>5</sup>

2023-yil 9-iyulda bo‘lib o‘tgan muddatidan oldin prezidentlik saylovlari erkin, adolatli va raqobatbardosh saylov o‘tkazish sari olg‘a siljishga dalil bo‘la olmaydi. Prezident Mirziyoyev 87 foizdan ortiq ovoz bilan yetti yillik muddatga qaytarildi, bu ajablanarli emas, chunki qolgan uchta nomzodning jamoatchilik obro‘si past edi va o‘ziga xos siyosiy g‘oyalarni ilgari surmadi. YXHT/DIHB Saylovni kuzatish bo‘yicha missiyaning dastlabki xulosalarida saylov o‘tkazilgan siyosiy/huquqiy muhit va saylov kuni so‘rovnomaning o‘tkazilishi yuzasidan bir qator tanqidiy fikrlar bildirilgan. Unga ko‘ra, “demokratik saylovlarni o‘tkazishda mustahkam huquqiy asosni ta‘minlash uchun jiddiy o‘zgarishlar zarur... [va] asosiy erkinliklar va saylanish huquqi cheklanganligicha qolmoqda”. Missiyada ta‘kidlanganidek, “kuzatuvchilar ko‘p sonli saylov uchastkalarida ovoz berish jarayonini salbiy baholadilar, kuzatuvlarning 13 foizida ovoz berish jarayoni ma‘muriyati yomon yoki o‘ta yomon ekanligi kuzatildi”.<sup>6</sup>

## Vakolatlarni ajratish, samarali nazorat va muvozanat

Konstitutsiyada hokimiyat bo‘linishiga asoslangan davlatning huquqiy asoslari belgilab berilgan. Konstitutsiyaning 11-moddasida O‘zbekiston “hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatlari o‘rtasida taqsimlanishi tamoyillariga asoslanadi” deyiladi. Biroq ekspertlarning umumiy xulosasiga ko‘ra, O‘zbekiston Prezidenti mustaqil davlat tarixining aksariyat qismida hukumat, parlament va sud tizimini boshqarish va nazorat qilish bo‘yicha katta rasmiy va norasmiy vakolatlarga ega bo‘lgan.<sup>7</sup> So‘nggi o‘n yil ichida davlatning turli tarmoqlari o‘rtasidagi vakolatlarni muvozanatlash va yanada samarali tekshiruvlarni o‘rnatish bo‘yicha qator chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Yangi Konstitutsiyada prezidentlik va parlament o‘rtasidagi vakolatlarning bo‘linishi (2011- va 2014-yillardagi avvalgi o‘zgartirishlar Bosh vazir vakolatlarini kengaytirgan) va sud hokimiyatining mustaqilligini kuchaytirdi (quyida o‘qing). Ba‘zi boshqa jihatlarda prezidentlik vakolatlari kuchaytirildi, masalan, hokimlarni (viloyat va shahar hokimliklari rahbarlari) bosh vazirga tavsiyasiz (avvalgidek) tayinlash va lavozimidan ozod etish.

Biroq yangi Konstitutsiyada prezidentlik muddatining besh yildan yetti yilgacha uzaytirilgani va avvalgi Konstitutsiyaga muvofiq Prezident Mirziyoyevning vakolat muddatini bekor qilgan va unga yana ikki muddatga saylanish imkonini bergan parlament qarori konstitutsiyaviy kuchga egaligi haqidagi Konstitutsiyaviy sudning qarori prezidentning rasmiy va norasmiy vakolatlarini sezilarli darajada kuchaytirdi. Prezident Mirziyoyev 2023-yil iyul oyida navbatdan tashqari prezidentlik saylovlari o‘tkazilishini e‘lon qildi. U islohotlarni tezlashtirish maqsadida prezidentlik muddatini uzaytirmoqchiligini ma‘lum qildi, biroq bu amalda ham tasdiqlanishi kerak.

## Saylangan mansabdorlarning samarali boshqaruv vakolati

Konstitutsiya mamlakatda saylangan mansabdor shaxslarning samarali boshqaruv vakolatiga ega bo‘lishining huquqiy asoslarini belgilaydi. 7-moddada “Xalq davlat hokimiyatining birdan-bir manbaidir” deyilgan. Haqiqiy hokimiyat Konstitutsiyada belgilangan institutlar va tartiblar bilan emas, balki kommunistik partiya va xavfsizlik xizmatlari tomonidan amalga oshirilgan O‘zbekistonning sovet tarixini aks ettirgan holda, 7-moddada hokimiyatning konstitutsiyaviy bo‘lmagan hokimiyat tuzilmalari tomonidan amalga oshirilishiga yo‘l qo‘ymaydi. Amalda O‘zbekistonda qarorlar qabul qilish shaffof emas va tegishli tartib-intizomni qo‘llash noizchil bo‘lib qolmoqda.

Prezident Mirziyoyev 2018-yilning mart oyida Milliy xavfsizlik xizmatini (MXX) tugatdi va uning vorisi — Davlat xavfsizlik xizmatining (DXX) jamiyat hayotidagi rolini qisqartirdi, uni siyosiy nazorat ostiga oldi, faoliyatining huquqiy asoslarini va o‘ziga xos majburiyat sohaslarini belgilab berdi hamda

4. DIHB 2016-yil dekabridan buyon barcha prezidentlik va parlament saylovlariga to‘liq monitoring missiyalarini yubordi. (Ular 2023-yil 30-aprelda bo‘lib o‘tgan Konstitutsiyaviy referendumga Referendumni kuzatish bo‘yicha cheklangan missiya yubordi.) Ular Prezident Karimov davridagi so‘nggi saylovlarga birorta ham to‘liq missiya yubormagan. 5. Demokratik standartlarni kuzatuvchi xalqaro tashkilotlar avvalgi Davlat strategiyasi davri mobaynida past darajada bo‘lsa-da yaxshilanishlar kuzatilganini qayd etadi. Jahon banki, Ovoz va Javobgarliklik bo‘yicha Butunjahon boshqaruv ko‘rsatkichlari 2016-yildagi 2,96 prosentil darajadan 2021-yil 12,56 darajaga o‘sish bo‘lganini ko‘rsatdi. 6. YXHT/DIHB Saylovni kuzatish missiyasi. Dastlabki natijalar va xulosalar bayoni, 10.07.2023. 6. Masalan, Freedom House o‘zining O‘zbekiston sahifasida “Oliy Majlis va sud hokimiyati amalda ijro etuvchi hokimiyat quroli bo‘lib xizmat qiladi...” deb ta‘kidlaydi.



# 1-Ilova – 1-modda bo‘yicha siyosiy baholash (3/8)

Parlament va Bosh prokuraturaga uning javobgarligini ta'minlash vazifasini topshirdi. Konstitutsiyada (143-5-moddalar) Bosh prokuratura faoliyatida javobgarlik va oshkoralikni oshirishga qaratilgan moddalar ham mavjud.

Harbiylar fuqarolik nazorati ostida bo'lib, mamlakatning siyosiy qarorlar qabul qilish jarayonida muhim rol o'ynamaydi.

Yangi Konstitutsiyada O'zbekiston dunyoviy davlat ekani alohida belgilab qo'yilgan. Diniy organlar va tashkilotlar mamlakatning siyosiy qarorlarini qabul qilish jarayonida muhim rol o'ynamaydi.

## **FUQAROLIK JAMIYATI, OAV VA ISHTIROKCHILIK**

### **Fuqarolik jamiyatining ko'lami va mustaqilligi**

Mustaqillikka erishilgandan so'ng O'zbekistonda fuqarolik jamiyatining rivojlanishi cheklangan edi, 2005-yildan keyin esa deyarli barcha mustaqil guruhlar yopildi, faqat oz sonli alohida faollar og'ir sharoitlarda ishlashda davom etishdi. Kamroq munozarali masalalar ustida ishlayotgan turli ko'ngilli uyushmalar bor edi, lekin ular rasmiy siyosatga mos keladigan maqsadlarni ko'zlagan va ba'zan davlat organlaridan grantlar olgan.

Prezident Mirziyoyev 2016-yil oxirida lavozimga kirishgach, guruhlar va faollar, masalan, paxta terimida bolalar mehnati va majburiy mehnatga barham berish borasidagi sa'y-harakatlarda yana muhim rol o'ynay boshladi. Biroq inson huquqlari kabi siyosiy nozik mavzular bo'yicha ishlaydigan mustaqil nodavlat notijorat tashkilotlarining faoliyat ko'rsatish doirasi cheklanganligicha qolmoqda, qonunchilik bazasi ularni ro'yxatdan o'tkazish va faoliyat yuritishi uchun og'ir tartib-qoidalarni belgilab qo'ygan.

Konstitutsiya fuqarolik jamiyatining keng huquqiy asoslarini belgilab beradi. Konstitutsiyaning 39-moddasida "O'zbekiston Respublikasi fuqarolari kasaba uyushmalariga, siyosiy partiyalarga va boshqa jamoat birlashmalariga uyushish, ommaviy harakatlarda ishtirok etish huquqiga egadirlar" deyilgan.

72-moddada "Davlat nodavlat notijorat tashkilotlarining huquqlari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishini ta'minlaydi, ularga jamiyat hayotida ishtirok etish uchun teng huquqiy imkoniyatlar yaratadi", deyilgan.

Shunday bo'lsa ham, fuqarolik jamiyati uchun konstitutsiyaviy asos ruxsat beruvchi emas, balki ko'rsatma beruvchi yondashuvni qo'llaydi. 71-modda bir qator taqiqlangan faoliyat turlarini belgilaydi, shu jumladan "holining sog'lig'iga, ijtimoiy axloqqa tajovuz qiluvchi... shuningdek, milliy va diniy belgilariga ko'ra siyosiy partiyalarning" tashkil etilishi va faoliyati taqiqlanadi.

2021-yil mart oyida Prezident qarori bilan 2021-2025-yillarda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi belgilab qo'yilgan bo'lib, u fuqarolik jamiyatini keng rivojlantirish uchun asos bo'lishi mumkin, biroq hozirgacha zarur bo'lgan qonun hujjatlari qabul qilinmadi. Keyinchalik, 2022-yil may oyida Vazirlar Mahkamasining qarori bilan chet eldan moliyaviy ko'mak oluvchi FJTlar zimmasiga ularning faoliyatini davlat organlari bilan muvofiqlashtirish bo'yicha yangi majburiyatlar yuklandi. 2023-yil oktabr oyida Vazirlar Mahkamasi qarorga FJTlarning chet eldan moliyaviy ko'mak olishini yanada qiyinlashtirishi mumkin bo'lgan o'zgartirishlar kiritdi.

Konstitutsiya kasaba uyushmalari faoliyatining keng huquqiy asoslarini belgilab beradi (yuqoriga qarang). Bundan tashqari, 73-moddada "Kasaba uyushmalari xodimlarning ijtimoiy-iqtisodiy huquqlarini va manfaatlarini ifoda etadilar va himoya qiladilar. Kasaba uyushmalariga a'zo bo'lish ixtiyoriydir" deyiladi. Amalda mehnatkashlar manfaatlarini ifodalovchi asosiy organlar sobiq sovet "rasmiy" kasaba uyushmalari bo'lib, ular davlat bilan yaqin aloqada bo'lishda davom etmoqda. 2020-yil mart oyidan kuchga kirgan "Kasaba uyushmalari to'g'risida"gi qonun mustaqil kasaba uyushmalarini tashkil etish yo'lidagi qadam bo'ldi. Ammo o'shandan beri yangi kasaba uyushmalarini tashkil etish yaxshi rivojlanmadi<sup>8</sup>.

### **Senzurasiz ishlaydigan mustaqil, plyuralistik OAV**

Konstitutsiya erkin ommaviy axborot vositalari uchun keng huquqiy bazani belgilaydi, lekin erkinlik asosida emas, balki ko'proq ko'rsatma asosida. 81-moddaga ko'ra, "Ommaviy axborot vositalari erkindir va qonunga muvofiq ish olib boradilar. Davlat ommaviy axborot vositalari faoliyatining erkinligini, ularning axborotni izlash, olish, undan foydalanish va uni tarqatishga bo'lgan huquqlari amalga oshirilishini kafolatlaydi.

8. 2021-yil mart oyida Sirdaryo viloyatidagi "Indorama" qo'shma korxonasida paxtakorlar mustaqil kasaba uyushmasini tuzdilar, biroq o'z muammolarini yanada samarali hal etish maqsadida kasaba uyushmasini tuzdilar.



Ommaviy axborot vositalari o‘zi taqdim etadigan axborotning ishonchligi uchun javobgardir.” 82-modda senzurani ochiqdan-ochiq taqiqlaydi..

So‘nggi o‘n yil ichida onlayn va ijtimoiy media platformalaridan foydalanish O‘zbekistonda media muhitini (xususan, turli mavzularda xabar beruvchi “bloggerlar”ning ommalashuvi) hamda hokimiyat va jamoatchilik o‘rtasidagi munosabatlarni o‘zgartirdi. Bu O‘zbekiston fuqarolari uchun mavjud bo‘lgan ma‘lumotlar hajmi va qarashlar doirasini sezilarli darajada oshirdi. 2019-yil may oyida rasmiylar O‘zbekiston aholisi uchun bir qator internetdagi yangilik saytlariga (ularning ba‘zilari 2005-yildan beri bloklangan) kirishni blokdan chiqardi. Shu bilan birga, inson huquqlari bo‘yicha bir qator xalqaro FJTLarining veb-saytlariga kirish osonlashtirildi.<sup>9</sup>

OAV erkinligini kuzatuvchi xalqaro tashkilotlar O‘zbekistonda 2019-2022 yillar oralig‘ida OAV muhitidagi kuchli rivojlanishni, 2023-yilda esa kichik pasayishni qayd etdi.<sup>10</sup> 2023-yil fevralida BMTning Asossiz hibsga olishlarni tekshirish bo‘yicha ishchi guruhi taniqli o‘zbek blogeriga nisbatan munosabatga xavotir bildirdi.<sup>11</sup> 2023-yil aprel oyida Yevropa Ittifoqi mustaqil bloggerlar va jurnalistlarga nisbatan jinoyi ayblovlarini xavotirli deb topdi.<sup>12</sup> Inson huquqlari, jumladan, OAV erkinligi ta‘minlanishini kuzatuvchi xalqaro tashkilotlar so‘nggi yillarda mustaqil jurnalistlar va blogerlarning ta‘qib qilinishidan tashvishlanayotganini bildirdi.<sup>13</sup>

## Fuqarolik va siyosiy ishtirok uchun mavjud bir nechta kanallar

Yangi Konstitutsiya loyihasini ishlab chiqish uchun mas‘ul bo‘lgan Konstitutsiyaviy komissiya keng jamoatchilik bilan maslahatlashuv kampaniyasini o‘tkazdi va bu jamoatchilikning faol ishtirokiga sabab bo‘ldi.<sup>14</sup>

Yangi Konstitutsiya o‘zbek xalqining mamlakat siyosiy hayotida ishtirok etishining huquqiy asoslarini belgilab berdi. Konstitutsiyaning 7-moddasida “Xalq davlat hokimiyatining birdan-bir manbaidir” deb belgilangan. Konstitutsiyaning 36-moddasida bu tamoyil yanada mustahkamlangan, “O‘zbekiston Respublikasining fuqarolari jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita hamda o‘z vakillari orqali ishtirok etish huquqiga ega.

Bunday ishtirok etish o‘zini o‘zi boshqarish, referendumlar o‘tkazish va davlat organlarini demokratik tarzda shakllantirish, shuningdek davlat organlarining faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati vositasida amalga oshiriladi.”

So‘nggi yillarda viloyat va mahalliy hokimlarning jamoatchilik oldida mas‘uliyatini oshirish masalasi tobora dolzarblashib bormoqda.<sup>15</sup> Viloyat hokimlariga bir vaqtning o‘zida xalq deputatlari Kengashining raisi lavozimini egallashni taqiqlovchi konstitutsiyaning ahamiyatsizdek ko‘rinadigan yangi qoidasi (120-modda) ularning mas‘uliyatini sezilarli darajada oshirishi mumkin.<sup>16</sup> Yangi Konstitutsiyada kengashlarning mustaqilligi va mas‘uliyatini oshirishga qaratilgan qoidalar ham mavjud. Masalan, deputatlarning hududiy yoki mahalliy kengashlarga ham a‘zo bo‘lishi taqiqlanadi. Unda kengashlarning mahalliy byudjetlarni belgilash va ijrosini nazorat qilish kabi vazifalari aniq belgilab berilgan.

Prezidentning 2018-yil iyuldagi farmoni bilan davlat organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini kuchaytirish maqsadida jamoatchilik kengashlari tashkil etildi. Keyinchalik markaziy va mahalliy davlat hokimiyati organlarida jamoatchilik kengashlari tashkil etildi, biroq ularning ta‘siri aniq emas.

## Siyosiy partiyalar tuzish erkinligi va uyushgan muxolifatning mavjudligi

Konstitutsiya siyosiy partiyalar va uyushgan muxolifat uchun keng huquqiy asoslarni belgilab beradi, garchi ular erkinlikdan ko‘ra ko‘proq ko‘rsatmaga o‘xshasa ham. Konstitutsiyaning 39-moddasiga ko‘ra, fuqarolar “siyosiy partiyalarga va boshqa jamoat birlashmalariga uyushish, ommaviy harakatlarda ishtirok etish huquqiga egadirlar... Siyosiy partiyalarda, jamoat birlashmalarida, ommaviy harakatlarda, shuningdek davlat hokimiyati vakillik organlarida ozchilikni tashkil etuvchi muxolifatchi shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qadr-qimmatini hech kim kamsitishi mumkin emas”. 2023-yilgi Konstitutsiyaning 74-moddasida siyosiy partiyalarning parlamentga yoki u vakolat bergan organga “o‘z faoliyatining moliyalashtirilishi manbalari haqida belgilangan tartibda oshkora hisobotlar” taqdim etishi majburiyati belgilab qo‘yilgan.

Ammo chinakam mustaqil siyosiy partiyalar tuzish va siyosiy muxolifatni tashkil etish erkinligi amalda qattiq cheklanganligicha qolmoqda..

9. Reporters without Borders, 15.05.2019. Ba‘zi tanqidiy veb-saytlar O‘zbekistonda yashovchilar uchun bloklanganligicha qolmoqda, masalan, Ozodlik radiosining o‘zbek xizmati. 10. Reporters without Borders, Global matbuot erkinligi indeksi O‘zbekistonda 2019-yilda 180 ta davlat ichida 160-o‘rinda, 2022-yilda 133-o‘rinda va 2023-yilda 137-o‘rinda deb belgiladi. 11. BMT Inson Huquqlari Kengashi Asossiz hibsga olishlarni tekshirish bo‘yicha ishchi guruhi fikri, 10.02.2023. 12. Yevropa Ittifoqi – O‘zbekiston hamkorlik kengashi bayonoti, 24.04.2023. 13. O‘zbekiston: Prezidentning bajarilmagan va‘dalari jurnalistlar va bloggerlarni xavf ostiga qo‘ydi, Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston forumi, 01.06.2023. 14. Xabar qilinishicha, fuqarolar, kasaba uyushmalari, oliy o‘quv yurtlari va mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan 200 mingdan ortiq takliflar kelib tushgan. 15. Prezident Mirziyoyev bir necha bor, yaqinda 2020-yil sentabr oyida ham viloyat hokimlarini saylash kerakligini taklif qilgan edi. 16. Boshqa qoidada (121-modda) hokimning vakolat muddati ketma-ket ikki marta besh yilga saylanish huquqi bilan cheklanadi





# 1-Ilova – 1-modda bo‘yicha siyosiy baholash (5/8)

YXHT/DIHHBning 2023-yil 9-iyul kuni bo‘lib o‘tgan muddatidan oldingi prezidentlik saylovini kuzatish bo‘yicha missiyasi faollarning mustaqil siyosiy partiyalarni ro‘yxatga olish harakatlari puchga chiqqanini ta’kidladi. Uning dastlabki xulosalar bo‘yicha bayonotida aytilishicha, "partiyalarni ro‘yxatga olish uchun og‘ir talablar siyosiy muhitning plyuralistik xususiyatini cheklashda davom etmoqda". Unda ro‘yxatga olingan beshta partiyaning barchasi parlamentda vakillik qilishi, biroq ularning barchasi Prezident siyosatini ma’qullashi aytilgan.<sup>17</sup>

## QONUN USTUVORLIGI VA SUD HOKIMIYATI

### Qonun ustuvorligi

Konstitutsiyada qonun ustuvorligini ta’minlashning huquqiy asoslari belgilab berilgan. Qonun ustuvorligining qo‘llanilishini kuzatuvchi xalqaro tashkilotlar avvalgi Davlat strategiyasi davrida past darajada bo‘lsa-da, barqaror rivojlanish kuzatilganini qayd etgan.<sup>18</sup> Yangi Konstitutsiya O‘zbekistonda qonun ustuvorligini ta’minlaydigan, Konstitutsiyada belgilangan tamoyillarni hamda xalqaro miqosda o‘z zimmasiga olgan majburiyatlarni mamlakat boshqaruvi va jamiyat hayotiga tadbqiq etishi mumkin bo‘lgan qoidalarni o‘z ichiga oladi.

Birinchidan, Konstitutsiyaning mamlakat ijtimoiy hayotiga bevosita tatbiq etilishi. Konstitutsiyaning 15-moddasida “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi mamlakatning butun hududida oliy yuridik kuchga ega, to‘g‘ridan to‘g‘ri amal qiladi va yagona huquqiy makonning asosini tashkil etadi” deyilgan. 16-moddaga ko‘ra, barcha qonunlar va normativ-huquqiy hujjatlar “Konstitutsiya asosida va uni ijro etish yuzasidan qabul qilinadi. Birorta qonun yoki boshqa normativ-huquqiy hujjat Konstitutsiyaning prinsip va normalariga zid bo‘lishi mumkin emas”.

Ikkinchidan, O‘zbekistonning xalqaro shartnomalar bo‘yicha majburiyatlari ichki qonunchilikdan ustunligi. 15-moddada “O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari xalqaro huquqning umume’tirof etilgan prinsip va normalari bilan bir qatorda O‘zbekiston Respublikasi huquqiy tizimining tarkibiy qismidir. Agar O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O‘zbekiston Respublikasining qonunida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo‘lsa, O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasi qoidalari qo‘llaniladi”.

Yangi Konstitutsiyada mavjud fuqarolik huquqlari yanada aniq ifodalanganligi va keng ko‘lamli yangi ijtimoiy, iqtisodiy huquqlarni o‘z ichiga olganligi sababli, bular Konstitutsiyada mustahkamlangan me‘yor va tamoyillarning mamlakat ijtimoiy hayotida yanada kengroq qo‘llanilishini ta’minlashga kuchli hissa qo‘shishi mumkin.

### Sud hokimiyatining mustaqilligi

Konstitutsiyada sud hokimiyati mustaqilligining huquqiy asoslari belgilab berilgan. Konstitutsiyaning 130-moddasida “O‘zbekiston Respublikasida sud hokimiyati qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatdan, siyosiy partiyalardan, fuqarolik jamiyatining boshqa institutlaridan mustaqil holda ish yuritadi”, deyilgan. 136-modda sudyalar ish faoliyatiga aralashuvdan himoya qilinish yo‘llari keltirib o‘tilgan.

Yangi Konstitutsiyada sud hokimiyati mustaqilligini himoya qilish choralari kuchaytirilgan. Jumladan, 135-moddaga ko‘ra, sudyalar va sudlarni saylash hamda boshqarish uchun mas‘ul bo‘lgan Sudyalar oliy kengashi ijroiya hokimiyatidan mustaqilligi Prezident Sudyalar oliy kengashi a‘zolarini tasdiqlash vakolatidan mahrum bo‘lgani bilan yanada kuchaytirildi.

### Hukumat va fuqarolar qonunga teng bo‘ysunadilar

Konstitutsiya hukumat va fuqarolarning qonunga teng bo‘ysunishi asoslarini belgilab beradi. Konstitutsiyaning 15-moddasida “Davlat va uning organlari, boshqa tashkilotlar, mansabdor shaxslar, fuqarolik jamiyati institutlari hamda fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq ish yuritadilar”, deyilgan. 20-moddada “Inson bilan davlat organlarining o‘zaro munosabatlarida yuzaga keladigan qonunchilikdagi barcha ziddiyatlar va noaniqliklar inson foydasiga talqin etiladi” deyilgan. Qonundan foydalanish imkoniyatini sezilarli darajada oshirish maqsadida Yangi Konstitutsiyaga “Har kimga malakali yuridik yordam olish huquqi kafolatlanadi. Qonunda nazarda tutilgan hollarda yuridik yordam davlat hisobidan ko‘rsatiladi” (29-modda) degan qo‘shimcha kiritildi.

17. YXHT/DIHHB Saylovni kuzatish missiyasi. Dastlabki xulosalar bayoni, 10.07.2023. O‘zbekiston hukumati siyosiy partiyalarni ro‘yxatga olish tartib-qoidalarini og‘ir deb hisoblamaydi. Ular saylovchilarga bo‘lajak saylovlarda kengroq tanlov berish uc



# 1-Ilova – 1-modda bo'yicha siyosiy baholash (6/8)

## Korrupsiyaning oldini olish bo'yicha samarali siyosat va institutlar

Prezident Mirziyoyev lavozimiga kirishganidan beri korrupsiyaga qarshi kurashishni ustuvor vazifa qilib qo'ydi. Ilgari korrupsiyaga qarshi kurashish va korrupsiya darajasini baholash bo'yicha sa'y-harakatlarni kuzatib boruvchi xalqaro tashkilotlar turli vakolatli davlat organlari tomonidan ko'pincha murakkab byurokratik tartib-qoidalar, litsenziyalash talablari va o'zboshimcha tekshiruvlarni o'z ichiga olgan iqtisodiyotga davlat aralashuvining yuqori ekani korrupsiya uchun qulay muhit yaratganini qayd etgan edi.

IHTTning Sharqiy Yevropa va Markaziy Osiyo uchun korrupsiyaga qarshi kurashish tarmog'i 2019-yil aprel oyidagi so'nggi xulosasida ta'kidlaganidek, "O'zbekiston eng yuqori darajadagi siyosiy majburiyatni o'z zimmasiga olgan holda, davlat boshqaruvining ko'plab sohalari tubdan qayta ko'rib chiqish uchun korrupsiyaga qarshi keng ko'lamli islohotlarni boshladi. Biroq bu islohotlar hali ham dastlabki bosqichda bo'lib, ko'p ishlar qilinishi kerak." 2020-yil iyun oyida Prezidentning "Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni bilan davlat organlarida korrupsiyaga qarshi kurash sa'y-harakatlarini muvofiqlashtirish va tezlashtirish maqsadida yangi Korrupsiyaga qarshi kurash agentligi tashkil etildi. Korrupsiyaga qarshi kurash agentligi bo'ysunuvchi Senat raisi huzurida Korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha Milliy kengash tashkil etilishi bilan parlamentga korrupsiyaga qarshi kurashni monitoring qilish vazifasi yuklatildi.<sup>19</sup> Bundan tashqari, yangi Konstitutsiyada Korrupsiyaga qarshi kurash agentligi rahbarini tayinlash vakolati Prezidentdan Senatga o'tadi.

Oldingi Davlat strategiyasi davrida tegishli xalqaro tashkilotlar O'zbekiston hukumating korrupsiyaga qarshi kurashish borasidagi sa'y-harakatlari barqaror o'sib borayotgani haqida xabar bergan edi. Transparency International korrupsiyani anqilash indeksiga ko'ra, O'zbekiston 180 mamlakat ichida 2018-yildagi 158-o'rindan 2022-yilda 126-o'ringa ko'tarildi. Yangi qonun hujjatlarini qabul qilish davom etmoqda. 2023-yilning may oyida Oliy Majlis yuqori mansabdor shaxslarning manfaatlar to'qnashuviga aralashib qolishining oldini olish uchun normativ-huquqiy hujjatlar ijrosini kuchaytirishga qaratilgan yangi qonunni tasdiqladi. Biroq fuqarolik jamiyati guruhlar va faollar siyosiy shaxslarning biznesga aralashuvi va yuqori mansabdor shaxslarning jiddiy manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq qarorlari haqida yangi xavotirlarni bildirishda davom etmoqda.<sup>19</sup>

18. O'zbekiston korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha sa'y-harakatlarni kuchaytirish uchun tegishli xalqaro tuzilmalar bilan hamkorlikni kuchaytirdi. 2020-yilda YTTB BMTning Narkotiklar va jinoyatchilik bo'yicha boshqarmasi bilan hamkorlikda nodavlat notijorat tashkilotlar va xususiy sektorning ushbu sohada davlat organlari bilan ishlash salohiyatini oshirish loyihasini qo'llab-quvvatladi. 19. Masalan, BMTning O'zbekistonda Korrupsiyaga qarshi Konventsiyasining II bobi (oldini olish) va V bobini (aktivlarni tiklash) amalga oshirish bo'yicha fuqarolik jamiyati hisobotiga qarang, 29.03.2022.

## FUQAROLIK VA SIYOSIY HUQUQLAR

### So'z, axborot, din, vijdon, harakat, uyushmalar, kengashlar va xususiy mulk erkinligi

Konstitutsiya O'zbekiston fuqarolarining asosiy inson huquqlaridan foydalanishining huquqiy bazasini belgilab beradi. 19-moddada keltirilganidek, "O'zbekiston Respublikasida insonning huquq va erkinliklari xalqaro huquqning umume'tirof etilgan normalariga binoan hamda ushbu Konstitutsiyaga muvofiq e'tirof etiladi va kafolatlanadi. Inson huquq va erkinliklari har kimga tug'ilganidan boshlab tegishli bo'ladi...."

Yangi Konstitutsiyada insonning asosiy huquq va erkinliklarini himoya qilish bo'yicha yanada keng va mustahkam qoidalar o'rin olgan. 54-moddada "Insonning huquq va erkinliklarini ta'minlash davlatning oliy maqsadidir. Davlat inson hamda fuqaroning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlangan huquqlari va erkinliklarini ta'minlaydi" deyiladi. 20-moddada "Insonning huquq va erkinliklari bevosita amal qiladi. Insonning huquq va erkinliklari qonunlarning, davlat organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, ularning mansabdor shaxslari faoliyatining mohiyati va mazmunini belgilaydi" deyiladi. So'z, axborot, din, vijdon, harakat, uyushmalar, yig'ilishlar va xususiy mulk bo'yicha huquqlar bir qator yangi moddalarda bayon etilgan.

Prezident Mirziyoyev lavozimiga kirishgach, tegishli xalqaro tashkilotlar O'zbekistonning fuqarolik huquqlarini ta'minlashi sezilarli darajada yaxshilanganini ma'lum qildi. Siyosiy yoki diniy sabablarga ko'ra qamoqqa olingan ko'p sonli mahbuslar ozod qilindi. 2019-yil avgust oyida ko'plab siyosiy va diniy mahbuslar juda og'ir sharoitlarda saqlanayotgan Jasiliq qamoqxonasi yopildi. So'nggi yillarda mamlakat ichida harakatlanish, yashash joyi va mamlakat tashqarisiga chiqish erkinligini cheklaydigan bir qator rasmiy qoidalar va maxsus tartiblar olib tashlandi.

Din va e'tiqod erkinligi sezilarli darajada yaxshilandi.



# 1-Ilova – 1-modda bo‘yicha siyosiy baholash (7/8)

## Ayollar, etnik va boshqa ozchilik guruhlar uchun siyosiy inklyuzivlik

Konstitutsiya ayollar, etnik va boshqa ozchilik guruhlar uchun siyosiy inklyuzivlikning huquqiy asoslarini belgilaydi. 19-moddada “O‘zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo‘lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, e‘tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishi, ijtimoiy mavqeyidan qat’i nazar, qonun oldida tengdirlar” deyilgan. 58-moddada “Xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlidirlar. Davlat xotin-qizlar va erkaklarga jamiyat hamda davlat ishlarini boshqarishda, shuningdek jamiyat va davlat hayotining boshqa sohalarida teng huquq va imkoniyatlarni ta‘minlaydi” deyilgan.

Avvalgi Davlat strategiyasi davrida ayollar va erkaklar teng huquqliligini ta‘minlash bo‘yicha qonunchilik bazasi mustahkamlandi, jumladan, 2020-2030-yillarga mo‘ljallangan Gender tengligiga erishish strategiyasi qabul qilindi. 2020-yil 20-mart oyida BMTning Ayollarga nisbatan kamsitishlarga barham berish bo‘yicha qo‘mitasining (CEDAW) yakuniy kuzatuvlari ushbu ishni ilgari surish bo‘yicha bir qator tavsiyalarni berdi. 2023-yil mart oyida Oliy Majlis fuqarolik jamiyati faollari muhim rol o‘ynagan kampaniyadan so‘ng CEDAW tavsiyasi bo‘lgan oiladagi zo‘ravonlikni jinoiy javobgarlikka tortuvchi qonunni qabul qildi.<sup>22</sup>

2016-yildan buyon xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy hayotdagi faolligini oshirishga qaratilgan islohotlar amalga oshirilib, Oliy Majlisdagi xotin-qizlar soni ko‘paydi, ular hozirda parlamentdagi 150 o‘rindan 48 tasini egallab turibdi.<sup>23</sup> Senat raisi va Oliy Majlis quyi palatasi spikeri o‘rinbosari ayollardir. Ammo gender stereotiplari saqlanib qolmoqda va ayollar siyosiy hayotda kam namoyon bo‘lmoqda. Hukumatdagi 27 nafar vazirdan atigi 2 nafari, Sudyalari oliy kengashining 12 nafar a‘zosi 2 nafari ayol kishi va barcha viloyat hokimlari erkaklardir.

Inson huquqlari standartlarini monitoring qilish uchun mas‘ul bo‘lgan xalqaro tuzilmalar 2021-yil mart oyida qayta ko‘rib chiqilgan Jinoyat kodeksida erkaklar o‘rtasidagi bir jinsli munosabatlarni jinoylashtirishni saqlab qolish qaroriga nisbatan xavotir bildirdi.<sup>24</sup> Bu xavotirlar xalqaro fuqarolik jamiyati tashkilotlari tomonidan ham bildirilgan.<sup>25</sup> O‘zbekiston Turkmanistondan tashqari postsovet hududida jinoiy qonunchilikda ushbu qoidani saqlab qolgan yagona davlat hisoblanadi.

Yangi Konstitutsiya va tegishli qonun hujjatlari turli etnik guruhlarining O‘zbekiston ijtimoiy hayotiga qo‘shilishi asoslarini belgilab berdi. Prezident Mirziyoyevning qo‘shni davlatlar bilan hamkorlikni rivojlantirish siyosati o‘zbek, qozoq, qirg‘iz, tojik yoki turkman millatiga mansub o‘zbekistonlik fuqarolarning qo‘shni davlatlardagi oila a‘zolari va do‘stlari bilan aloqalarini davom ettirishini ancha osonlashtirdi. Biroq 2022-yil iyul oyida O‘zbekiston g‘arbiy qismidagi Qoraqalpog‘iston Muxtor Respublikasining mamlakat tarkibidan ajralib chiqish huquqini olib tashlaydigan konstitutsiyaga taklif qilinayotgan o‘zgartirishga qarshi chiqqan namoyishchilarga xavfsizlik kuchlari to‘qnash kelganida, O‘zbekiston juda jiddiy milliy mojaroni boshidan kechirdi.<sup>26</sup>

## Ta‘qib, qo‘rqitish va qiynoqlardan ozodlik

Konstitutsiyada ta‘qib, qo‘rqitish va qiynoqlardan erkin bo‘lishning huquqiy asoslari belgilab berilgan. 25-moddada “Yashash huquqi har bir insonning ajralmas huquqidir va u qonun bilan muhofaza qilinadi. Inson hayotiga suiqasd qilish eng og‘ir jinoyatdir” deyiladi. 26-moddada “Hech kim qiynoqqa solinishi, zo‘ravonlikka, boshqa shafqatsiz, g‘ayriinsoniy yoki inson qadr-qimmatini kamsituvchi muomalaga yoxud jazoga duchor etilishi mumkin emas” deyiladi.

Umuman olganda, 2023 yilgi Konstitutsiyada ta‘qib, qo‘rqitish va qiynoqlarga qarshi ko‘proq himoya choralari mavjud.

20. UN CEDAW Concluding Observations, 01.03.2022; 21. Xalqaro fuqarolik jamiyati tashkilotlari bu harakatni olqishladi. Masalan, Xalqaro Amnistiyaning 06.04.2023 sanasidagi "O‘zbekiston: Parlament oiladagi zo‘ravonlikni jinoiy javobgarlikka tortuvchi uzoq kutilgan qonunni qabul qildi" nomli hujjatiga qarang. 22. 2019-yilda qayta ko‘rib chiqilgan Saylov kodeksida parlament saylovida partiyalar tomonidan ko‘rsatilgan ayol nomzodlar soniga 30 foizlik kvota belgilandi. 23. Masalan, qarang: The Statement of UNHCHR in Tashkent, 15.03.2023; 24. Masalan, qarang: "Uzbekistan: Gay Men Face Abuse, Prison", HRW, 23.03.2021; 25. Rasmiy ma‘lumotlarga ko‘ra, zo‘ravonliklarda 21 kishi halok bo‘lgan, 243 kishi yaralangan. Namoyishlardan so‘ng darhol prezident Mirziyoyev konstitutsiyaga taklif qilingan o‘zgartirishni qaytarib olishni buyurdi.



# 1-Ilova – 1-modda bo‘yicha siyosiy baholash (8/8)

25-modda o'lim jazosini taqiqlash orqali muhim yangi huquq belgilab berildi. 27-moddada o'zbohimchalik bilan hibsga olishdan himoya qilish bo'yicha keng va aniq ma'lumot mavjud. Parlamentning Inson huquqlari bo'yicha ombudsmeni hibsxonalardagi huquqbuzarliklarga qarshi kurashda, jumladan, monitoring tashriflarini o'tkazish va mansabdor shaxslarni o'qitishni tashkil etishda faol ishtirok etmoqda. Xabarlarga ko'ra, O'zbekiston Qiynoqlarga qarshi konvensiyaga qo'shimcha protokolni ratifikatsiya qilish ustida ishlamoqda.

Inson huquqlari me'yorlarini kuzatuvchi xalqaro tuzilmalar O'zbekiston hukumatining mansabdor shaxslarni inson huquqlari buzilishi, jumladan, yashash huquqi va asossiz yoki shafqatsiz munosabatdan himoyalaniish huquqi buzilgani uchun javobgarlikka tortishiga nisbatan xavotir bildirishda davom etmoqda. Jinoyat kodeksida majburiy mehnat siyosiy yoki mafkuraviy qarashlarini ifodalash yoki ish tashlashlarda qatnashish uchun jazo sifatida saqlanib qolgan va bu O'zbekistonning XMT majburiyatlariga zid hisoblanadi.

Inson huquqlari standardlarini kuzatuvchi xalqaro tashkilotlar ham Qoraqalpog'istondagi noroziliklarni mustaqil va oshkora tergov qilishga chaqirdi.<sup>27</sup> Mustaqil va oshkora tergov o'tkazish chaqirig'i Yevropa Ittifoqi va O'zbekistonning boshqa xalqaro hamkorlari tomonidan qo'llab-quvvatlandi.<sup>28</sup>

Rasmiy Tergov komissiyasining hisoboti hali e'lon qilinmadi.

27. Masalan, qarang: The Statement of UNHCHR in Tashkent, 15.03.2023; 28. Masalan, qarang: "Yevropa Ittifoqi-O'zbekiston hamkorlik kengashi yakuni bo'yicha Bayonot", Lyuksemburg, 24.04.2023. 2022-yil iyulida Qoraqalpog'istonda bo'lib o'tgan norozilik namoyishlari bilan bog'liq O'zbekiston rasmiylarining harakatlari xalqaro fuqarolik jamiyati tashkilotlari tomonidan tanqid qilindi. Misol uchun qarang: "Uzbekistan's Prosecution of Karakalpakstan Protestors Raises Many Questions", HRW, 01.12.2022.